

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK-891.4.494.322o‘zb.-8

SADINOVA NIGINA SAFAROVNA

Anvar Obidjon she’rlarining lingvopoetikasi

5A120102- Lingvistika (tillar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar:
filologiya fanlari doktori, professor
M.Qurbonova**

Toshkent - 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BADIY MATNNING	
O‘RGANILISHI.....	10
I bob bo‘yicha xulosa.....	25
II BOB. ANVAR OBIDJON SHE‘RIYATIDA MA‘NO	
KO‘CHIMLARI.....	26
2.1. Yozuvchining metaforalardan foydalanish mahorati.....	26
2.2. Anvar Obidjon ijodida metonimiyaning lingvopoetik xususiyatlari.....	35
2.3. Sinekdoxa va uning lingvopoetik xususiyatlari.....	37
II bob bo‘yicha xulosa.....	39
III BOB. ANVAR OBIDJON IJODIDA SEMANTIK-STILISTIK	
VOSITALAR.....	40
3.1. Anvar Obidjon she‘riyatida o‘xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari.....	43
3.2. Anvar Obidjon she‘riyatida jonlantirishning lingvopoetik xususiyatlari.....	54
3.3. Antitezaning lingvopoetik imkoniyatlari.....	59
3.4. Anvar Obidjon she‘riyatida sifatlashlarning lingvopoetik xususiyatlari.....	68
3.5. Anvar Obidjon she‘riyatida takrorning lingvopoetik xususiyatlari.....	72
III bob bo‘yicha xulosa.....	82
XULOSA.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	86

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda bugungi kunda xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining hamma jabhalarida erishilayotgan yutuqlar, jahonning eng rivojlangan davlatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-texnik sohalardagi aloqalarda erishilayotgan muvaffaqiyatlar bevosita yurtimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritganligi bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov xalqimizning asrlar davomida ardoqlab kelingan buyuk boyligi hisoblangan ma'naviyatning asl mohiyati va uning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini yoritib berishga bag'ishlangan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ona tilimizning mamlakatimiz ichki va tashqi hayotidagi o'rni va rivojlanishiga, uning vazifaviy-uslubiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozimligiga alohida e'tibor qaratgan. Haqiqatdan ham, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur»¹.

Darhaqiqat, ma'naviyatimizning asosi bo'lgan adabiy tilimizni yanada rivojlantirish, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni o'rganish, mustaqillik mafkurasini badiiy ijod sohasida, ta'lim jarayonida yoshlarimiz ongiga singdirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, davlatimiz rahbariyati ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratdi. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy modelini amalga oshirish kun tartibidagi eng muhim masalalardan biriga aylandi. Ana shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda zamonaviy bilimlardan, ilg'or pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish maqsadida «Ta'lim to'g'risida»gi

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. Ma'naviyat, 2008. – B.87.

Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. «Milliy istiqlol g'oyasini vatandoshlar shuuriga singdirish, yurt kelajagi – yosh avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirishday oliyjanob vazifalar davlat dasturi darajasiga ko'tarildi»².

Tilning o'z funksional-semantik imkoniyatlarini, turli ma'no nozikliklarini namoyon etishida badiiy ijod ahlining, xususan, shoir va yozuvchilarning xizmatlari beqiyosdir. Shu bois alohida olingan ijodkorlar individual uslubi, asarlarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish ularning adabiy tilimiz rivojiga qo'shgan hissalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek, «Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotgani, adabiyot maydonida yangidan-yangi nomlar paydo bo'layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi. Bularning barchasi milliy tiklanish jarayonlari qalam ahlining ijodiy izlanishlari uchun qanday katta ufqlar ochib berganini yana bir bor ko'rsatadi»³.

Bu fikrlar mustaqillik tufayli xalqimiz hayotida milliy tiklanish yuzaga kelganligi, xalqimiz orasida yangi ijtimoiy munosabatlar amal qila boshlaganligini ko'rsatadi. Mustaqillik davrida badiiy ijodga bo'lgan talab sezilarli darajada kuchaydi.

Atoqli olmon olimi Vilgelm fon Gumboldtning “Yer yuzidagi tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning har xilligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasidir”⁴, degan gapida juda katta haqiqat mavjud.

²Воҳидов Р., Неъматов Х., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат.-Тошкент. Ёзувчи. 2001. Б.5.

³Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 38.

⁴ Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человеческого рода // Звегинцев В.В. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях, часть 1. – М.: Просвещение. 1964, 91-бет.

Darhaqiqat, ilm-fan, badiiy ijodda mustaqillik sharofati bilan dunyoni ko‘rish yangi tus oldi.

Mustaqillik davri o‘zbek badiiy adabiyotining va shu jumladan, adabiy tilimiz rivojiga o‘z ijodi bilan munosib hissa qo‘shgan adiblardan biri O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonidir. Anvar Obidjonning turli mavzularda yaratilgan she‘rlarida o‘zbek tilining yashirin imkoniyatlari, til birliklarining o‘ziga xos nozik ma’nolar ifodalashda lingvopoetik xususiyatlari, jozibasi, bo‘yoqdorligi, ifodaliligi, emotsional-ekspressivligi turli vositalar yordamida namoyon bo‘ladi. Anvar Obidjon ijodida betakror tasvirlarni yuzaga keltiruvchi hamda she‘riyati tilining badiiyatini ta’minlovchi lingvopoetik vositalardan o‘rinli foydalanganligi uning so‘z qo‘llashda yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Filologiya fanlari doktori, professor A.Rasulov ta’kidlaganidek: “Anvar Obidjon – yangi o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni, uslubi, qarashlari, qahramonlari, o‘quvchilari mavjud betakror san’atkor. U o‘zligini izlay-izlay yetuk shoir, so‘z san’atkori bo‘ldi”⁵.

O‘zbek tilshunosligida alohida ijodkorlar tili va uslubini lingvopoetik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan ayrim ishlar mavjud bo‘lsa-da, Anvar Obidjonning she‘riy asarlari haligacha maxsus o‘rganilmagan. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Anvar Obidjon ijodiga ko‘plab olimlar, yozuvchilar munosabat bildirganlar, tadqiq etganlar. Jumladan, O‘zbekiston xalq yozuvchilari Said Ahmad ⁶, X.To‘xtaboyev ⁷, olimlardan I.G‘afurov⁸, A.Rasulov⁹, S.Matjon va Z.Ibrohimova¹⁰, N.Jumayev¹¹, R.Qo‘chqor¹²,

⁵ Rasulov A. Ўзлик сари йўл. Тошкент.Адиб. 2012. - Б.29.

⁶ С.Аҳмад. “Безгакшамол” китобига ёзилган сўзбоши. – Тошкент, 1985. – Б.3-5; 2) Фарғонада биттагина. // Халқ сўзи. 2000 йил 19 апрель.

⁷ Тўхтабоев Х. Полосонлик Анвар Обиджон // Халқ сўзи. 2006 йил 20 май.

⁸ И. Ғафуров. Камалак: Адабий-танқидий йиллик тўплам. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – Б.126 – 155.

⁹ Расулов. А. Бетакрор ўзлик. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2009. – Б.187-208.

¹⁰ Сафо Матчон, З.Иброҳимова. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2007 йил 2 ноябрь.

¹¹ Н.Жумаев. Мағзи тўқ шеърлар // Шарқ юлдузи. 1986. - №11.

¹² Раҳмон Қўчқор. Ажабтовур идрок усули ёхуд Анвар Обиджоннинг “Олтиариқ хангомалари” китобидан қолган илк таассурот // Fidokor. 2000 йил 20 июль.

H.Hamroyevalar¹³ nazm va nasrda ijob qilgan shoirning ijodini o'rganishda salmoqli hissa qo'shganlar.

Adabiyotshunos R.Barakayeva birinchilardan bo'lib Anvar Obidjonning bolalarga bag'ishlangan she'rlariga e'tibor qaratgan¹⁴. Tadqiqotchi G.Jo'rayeva "O'zbek bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish mahorati" nomli dissertatsiyasida¹⁵ Anvar Obidjonning bolalarga atab yozilgan she'rlaridagi obrazlarni tahlil qilgan.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mohir so'z san'atkori Anvar Obidjon ijodida individual uslubiga xos xususiyatlarni aniqlashda shoir poetik asarlari tilining badiiyatini ta'minlovchi lingvopoetik vositalarni tahlil qilish magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun tadqiqot jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga holisona baho berish va bu borada erishilgan yutuq va kamchiliklarni, amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni tahlil qilish;

- Anvar Obidjon ijodining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi haqida fikr yuritish va uning she'riy asarlari tilini lingvopoetik jihatdan tadqiq etishning bugungi kundagi dolzarb ahamiyatini belgilab berish;

- shoirning she'riy asarlarda lisoniy birliklarni tanlash va qo'llashdagi mahorati, o'ziga xos individual uslubining lingvopoetik va badiiy-estetik xususiyatlari haqida fikr yuritish;

- Anvar Obidjon she'riy asarlari tilining badiiy jihatdan to'laqonli va pishiq, emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi vositalarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish;

¹³ Хамроева Х. 1) Ахир менинг қарзим куп она тупроқдан... // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1996 йил 8 ноябрь; 2) Мўъжазу мўъжиза шеър ифори // Тонг юлдузи. 1997 йил 16 июль.

¹⁴ Баракаев Р. Жонажоним шеърият (80-йиллар ўзбек болалар шеърияти ҳақида баъзи қайдлар). – Тошкент: Чўлпон, 1997. – Б.88.

¹⁵ Жўраева Г.А. Ўзбек болалар шеъриятида ҳажвий образ яратиш маҳорати (XX асрнинг 80-90-йиллари материаллари асосида): Фил.фан.номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б.24.

– Anvar Obidjon she'riyatida qo'llangan va tilimizda ifoda-tasvir vositalari deb yuritiluvchi ko'chma ma'no ifodalovchi birliklarning konnotativ-estetik vazifasini aniqlash;

– Anvar Obidjonning lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari, voqelik faktlariga munosabatini ochib berishda lingvopoetik vositalardan foydalanishdagi o'ziga xos uslubini aniqlash;

– shoir asarlarida troplar va uslubiy figuralarning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash va ularning badiiy matnlarda tutgan o'rnini yoritish;

– Anvar Obidjonning badiiy til imkoniyatlaridan hamda lingvopoetik vositalardan foydalanish mahorati to'g'risidagi fikrlarni bir maxrajga keltirish va bu borada muayyan xulosalarga kelish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Anvar Obidjonning 2006-yilda nashr qilingan “Tanlangan she'rlar” asariga kiritilgan she'rlari mazkur magistrlik dissertatsiyasi uchun tadqiqot obyekti qilib olindi. Shoir asarlarida qo'llangan lingvopoetik tasvirni yuzaga keltiruvchi leksik-stilistik vositalarning she'riy asar tilining badiiy-estetik jihatdan o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qilishini lingvopoetik aspektida o'rganish tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ushbu magistrlik ishini tadqiq etishda dialektik tafakkurning qonuniyatlarini poetik asarlar matniga tatbiq qilgan holda shakl va mazmun, makon va zamon, xususiylik va umumiylik, sabab-oqibat tamoyillariga tayanish, tadqiqot jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun semantik-stilistik, komponent tahlil, tavsiflash, qiyoslash, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanish ishdan ko'zlangan asosiy farazlar hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Ishning I bobini yoritishda A.Abdullayevning “O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi” (Toshkent. Fan.1983) asari, G'.Abdurahmonovning “Adabiy asar tilini o'rganish haqida” (Toshkent. Fan, 1966) asari, B.Yo'ldoshevning “Badiiy nutq stilistikasi” (Samarqand. 1982.) kabi asarlardan, II va III boblarini yoritishda Anvar Obidjonning ijodiga oid bo'lgan asarlar, jumladan, “Bezgakshamol” (Toshkent. Sharq. 1985), “Ketmagil” (Toshkent. G'.G'ulom. 1985), shuningdek, asosan,

“Tanlangan she’rlar” (Toshkent. Sharq. 2006) asarlari asosida she’rlarining lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishda asosiy manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqotda qo’llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Mavzu yuzasidan misollar to’plash, badiiy asar tahlilining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish usuli, shuningdek, o’xshatish, jonlantirish, antiteza, sifatlash kabi semantik-stilistik vositalarining badiiy asar tilini o’rganishda qo’llaniladigan metodlardan foydalanildi va asarda qo’llanilgan so’zlarning o’xshatish, jonlantirish, antiteza, sifatlash kabi xususiyatlari bo’yicha kartotekasi tuzildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida Anvar Obidjon she’riy asarlari tilining o’ziga xosligini ta’minlovchi lingvopoetik vositalar aniqlandi va badiiy-estetik vazifasiga ko’ra ma’lum bir guruhlariga ajratildi;

- Anvar Obidjonning she’riy asarlari o’zbek tilshunosligida ilk bor lingvopoetik nuqtayi nazaridan tahlilga tortildi;

- Anvar Obidjonning she’riy asarlar tilining o’ziga xosligini ta’minlashda ifoda-tasvir vositalarining ahamiyati, ijodkorning so’zning ko’chma ma’nolaridan foydalanish mahorati turli misollar asosida izohlandi va ularning she’riy asar tilidagi o’rni belgilandi;

- Anvar Obidjon ijodida troplar va uslubiy figuralarning lirik qahramonlar xarakter-xususiyatlari, ichki kechinmalarini ochib berishdagi roli, badiiy obrazlilikni yuzaga keltirishdagi ahamiyati ko’rsatib berildi;

- lingvopoetik vositalarning funksional-semantik, badiiy-estetik imkoniyatlari Anvar Obidjonning she’riy asarlari misolida ko’rsatib berildi;

- ifoda tasvir vositalarining she’riy asarlar tilidagi estetik ta’sirchanligi faqat badiiy tasvir bilan cheklanib qolmay, muallif kommunikativ maqsadiga ham xizmat qilishi misollar asosida tahlil qilindi;

- Anvar Obidjon she’riy asarlari tilida emotsional-ekspressiv leksikaning lingvopoetik imkoniyatlari ochib berildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Anvar Obidjon she’riy asarlarining tili va uslubini o’rganishga bag’ishlangan ushbu magistrlik ishi

ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan o'rganish bo'yicha izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar uchun muhim ma'lumotlar beradi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida badiiy asar tili, uslubshunoslik, leksikologiya bo'yicha o'quv dasturlari tuzishda, nutq madaniyati, badiiy matnning lisoniy tahlili bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda tadqiqot natijalari material vazifasini o'taydi. Ishda erishilgan natijalardan o'zbek tilshunosligida alohida olingan ijodkorlar tili va uslubi, xususan, she'riy asarlarning lingvopoetik imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha kelgusida magistrlik dissertatsiyalari, malakaviy bitiruv ishlari yozishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi ishining umumiy tavsifi, kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 95 sahifani tashkil qiladi.

I bob

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BADIY MATNNING O‘RGANILISHI

Inson jamiyatning va unda yuz beradigan jami o‘zgarishlar markazida turuvchi asosiy figura sifatida o‘z hayoti va faoliyati bilan bog‘liq tushunchalarni nomlashda tilda mavjud bo‘lgan turli vositalardan foydalanadi, hayotiy tajriba va ko‘nikmalariga asoslangan holda narsalar va hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, ularga tayanib umumiylik va xususiylik, tur va jinsga oid bilimlarini umumlashtiradi. Shu tariqa kishilarning asrlar davomida shakllangan ijtimoiy – tarixiy tajribasi tobora mukammallashib muomala jarayonida qo‘llaniluvchi til birliklari mazmunida o‘z ifodasiga ega bo‘ladi. Til kishilarning tarixiy hayotiy tajribalarini o‘zida aks ettiradi va lisoniy zaxiralarni ajdoddan avlodga yetkazish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. “Muloqot odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va o‘zaro tushunishning murakkab ijtimoiy-psixologik jarayoni sifatida turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Jumladan, verbal muloqot (belgili tizimlardan nutqda foydalanish) va noverbal muloqot (turli xil nutqiy belgili tizimlardan foydalanish)ni farqlash qabul qilingan.”¹⁶

Til inson tafakkurining qay darajada ekanligini ko‘rsatuvchi va o‘zi xizmat qiluvchi millat yoki elat tarixidan guvohlik beruvchi qimmatli manba bo‘lib, o‘zida xalqning minglab yillar davomida to‘plagan bilish tajribasini, uning urf – odatlari va etnik ideallarini, milliy xarakteri va taraqqiyot yo‘lini aks ettiradi.¹⁷ Tilda mavjud bo‘lgan va o‘zaro aloqalarda faol qo‘llaniluvchi lug‘aviy birliklarning funksional xususiyati insonning voqelikni, voqelik faktlarini, hodisalarni atash uchun xoslanganligi bilan belgilanadi.¹⁸ Jamiyat hayotining muntazam ravishda taraqqiy etib borishi bevosita insonning tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga munosabati, o‘z ijtimoiy layoqati va tavsifi, jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, hayot tarzi kabilarga chambarchas bog‘liq. Bu aloqadorlik til taraqqiyotini, uning lug‘aviy sathi yangi birliklar hisobiga tobora boyib, yangi

¹⁶Хусанов Баходир, Ғуломов Валижон Муомала маданияти, Тошкент, 2007. Б.4.

¹⁷Тарланов З.К. Язык и культура. – Петрозаводск: Петрозаводский гос. Ун-т, 1984. – С.4. С.104.

¹⁸Шмелев Д.Н. Современный русский язык. Лексика. – М.: Просвещение, 1977. – С. 16. С.335.

tushunchalarni anglatuvchi soʻzlarning paydo boʻlishiga olib keladi. Nutqning u yoki bu koʻrinishi uchun xoslangan bunday birliklarning til tizimida tutgan oʻrnini aniqlash, ularning soʻzlovchi kommunikativ maqsadiga bogʻliq holda qoʻllanish imkoniyatlarini ochib berish til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabatlarining mazkur masala bilan aloqador muhim tushunchalar ekanligidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda til va uslub, matn turlari, badiiy matn va unda til birliklarining qoʻllanish imkoniyatlarini tilshunoslikning turli sathlari doirasida tadqiq etishga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi va bu muammolar bugungi kunda ham kun tartibidan tushgan emas. Insonning eng nozik his-tuygʻulari asosida yuzaga kelgan badiiy matnlarda oʻquvchiga estetik taʼsir koʻrsatish xususiyati kuchli tarzda namoyon boʻladi. Badiiy matn shu maʼnoda xalqimizning oʻziga xos mentaliteti, xarakteri, ijtimoiy turmush tarziga xos urf–odatlarini, milliy–maʼnaviy qadriyatlari va asrlar osha davom etib kelayotgan anʼanalarini oʻzida yaqqol ifodalaydi. Ijodkor tomonidan hayotni teran va sinchkovlik bilan kuzatish natijasida yuzaga kelgan har bir ijod namunasida oʻzbekona hayot aks etadi, unda keng qamrovli masalalar qatori badiiy adabiyotimiz muammolari ham boʻrtib turadi. Badiiy matnlar millat maʼnaviy dunyoqarashi, orzu-istaklarini tildagi mavjud usul va vositalar, lisoniy birliklar orqali yorqin ranglarda ifodalab beradiki, bu xususiyat uni sanʼatning boshqa turlaridan bir pogʻona yuqori koʻtaradi. Shu oʻrinda har bir badiiy ijod namunasining mukammal boʻlishi bevosita unda gʻoya va ifoda uygʻunligidan iborat ekanligi, til va adabiyotning oʻzaro uzviy bogʻliqligi, ularning bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligi ayon boʻladi. Ularni bir-biridan ajratib oʻrganishning iloji yoʻq. Til va badiiy ijod orasidagi chambarchas aloqadorlik, shakl va mazmun yaxlitligi oʻzbek xalqining shakllanishi va taraqqiy qilishidan guvohlik beruvchi shonli oʻtmishi, turmush tarzi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir boʻlgan tarixiy evrilishlar, ichki va tashqi taʼsirlar tufayli tilimiz lugʻat tarkibining kundalik boyib borishidagi yangiliklar bilan hamohangdir. Yuqorida qayd etilganidek, bu holatlarning, avvalo, tilimiz lugʻaviy sathida oʻz aksini topishi sababi ham shunda.

O'zbek tilshunosligida badiiy matnlarni o'rganish borasida turli yo'nalishda tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tilimiz tarixi, mumtoz asarlar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlar jumlasiga G'.Abdurahmonov, A.Rustamov¹⁹, X. Doniyorov²⁰, Z. Hamidov²¹, B.Bafojev²² larning tadqiqotlarini kiritish mumkin. X.Abdurahmonov, N.Mahmudov²³, E.Begmatov²⁴, N.Shukurov²⁵, G.Imomova²⁶, B.Yo'ldoshev, F.Bobojonov, Z.Pardayev²⁷, G.Muhammadjonova²⁸, B.Ro'zimuhammad²⁹, Y.Solijonov³⁰, P.Qodirov³¹ va boshqalarning ishlarida badiiy asar tilini o'rganish bilan bog'liq ilmiy-nazariy muammolar haqida fikr yuritilgan.

O'zbek tilshunosligida badiiy til vositalari nutqning turli ko'rinishlarida qo'llanilishi ma'lum darajada tahlil etilgan. X.Doniyorov va B.Yo'ldoshevlar o'z kuzatishlarida adabiy til va badiiy uslub bilan bog'liq muammolar to'g'risida fikr yuritgan bo'lsalar³², I.Qo'chqortoyevning tadqiqotlari o'zbek badiiy nutqini uslubiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi³³. B.Yo'ldoshevning tadqiq doirasi birmuncha kengroq bo'lib, olim badiiy nutqda qo'llanuvchi vositalar, frazeologik birliklar uslubiyati³⁴ masalalariga oydinlik kiritishga harakat qilgan. S.Karimovning o'zbek tilining badiiy uslubi³⁵ bo'yicha izlanishlari esa vazifaviy uslublar tizimida mazkur uslubning tutgan o'rnini

¹⁹ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 1984.

²⁰ Дониёров Х. Навоий ва ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1972.

²¹ Ҳамидов З. Навоий бадий санъатлари. -Тошкент: Университет, 2001.

²² Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991.; Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент : Фан, 1983.

²³ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси.- Тошкент: Фан, 1981. 6-38-бетлар.

²⁴ Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий тарихий асослари // Ўзбек тили лексикологияси, Тошкент: Фан, 1981. 41-152-бетлар.

²⁵ Шукуров Н. Бадий услуб ва бадий тил // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, 4 сон. 4- 9-бетлар.

²⁶ Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли, НДА. -Тошкент, 1993. 7-21-бетлар.

²⁷ Йўлдошев Б., Бобожонов Ф., Пардаев З. Бадий асар тили масалалари. -Навоий: Навоий ДПИ нашри, 2001. 5-8-бетлар.

²⁸ Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи. НДА.- Тошкент, 2004. 7-17-б.

²⁹ Рўзимуҳаммад Б. Тил – асарнинг танаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1997. 5 декабр,

³⁰ Солижонов Й. Бадий асарда монологик нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 3-сон. 16-20-б.; Бадий нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979, 2-сон. 71-75-бетлар.; XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси, ДДА.- Тошкент, 2002. -38-б.

³¹ Қодиров П. Тил ва эл (Темурийлар давридаги мумтоз адабий тилимиз муаммолари).- Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2005. – 248 б.

³² Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стил. -Тошкент: Фан, 1988. 112-163. 190-207-б.

³³ Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. -Тошкент: ТошДУ нашри, 1975. 48-72-б.

³⁴ Йўлдошев Б. Бадий нутқ стилистикаси. -Самарқанд: СамДУ нашри, 1982. 5-32-б.; Фразеологик услубият асослари. -Самарқанд: СамДУ нашри, 1999.; Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. ДДА.- Тошкент, 1993.

³⁵ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992. 228-б.

aniqlashga qaratilganligi bilan tilshunosligimizning katta yutuqlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari o'zbek badiiy adabiyoti rivojiga o'z hissalarini qo'shgan ijodkorlar asarlari lingvostilistik jihatdan ma'lum darajada o'rganilgan. E.Qilichevning Sadridin Ayniy asarlarida arxaizm va istorizmlar ³⁶, S.Boboyevaning Hamid Olimjon poeziyasining leksik xususiyatlarini ³⁷, M.Yo'ldoshevning Cho'lponning badiiy til mahoratini ³⁸, S.Boymirzayevaning Oybek prozasining lingvostilistik xususiyatlarini ³⁹ M.Sultonovning Abdulla Qahhor⁴⁰, M.Muhiddinov va S.Karimovlarning G'afur G'ulom⁴¹, T.Qurbonovning P.Qodirov⁴² asarlari tilini o'rganishga oid tadqiqotlari tilshunosligimizda badiiy matnlarni o'rganish bo'yicha katta ishlar qilinganligidan dalolat beradi.

Qayd etish lozimki, o'zbek tilshunosligida keyingi yillarda mazkur yo'nalishdagi kuzatishlarda ma'lum bir evrilish yuzaga kelganligi seziladi. Bunday izlanishlar orasida badiiy asar tiliga lingvopoetik jihatdan yondashilgan, bu asarlarda qo'llanilgan til birliklarini poetik nutq o'lchovlari asosida baholashga qaratilgan ishlar ham anchagina. Tilshunosligimizda poetik nutqning til xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ham keng qamrovli izlanishlar olib borildi va ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratildi⁴³.

³⁶ Қиличев Э. Архаизмы и историзмы в прозе Садриддина Айны: Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Ташкент, 1969;

³⁷ Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989;

³⁸ Йўлдошев М. Чўлпоннинг халқ ибораларидан фойдаланишдаги маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, 6-сон. 59-61-б.; Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан.ном... дисс. – Тошкент, 2000; Чўлпон сўзининг сирлари. -Тошкент: Маънавият, 2002.

³⁹ Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол.фан.ном... дисс. – Тошкент, 2004.

⁴⁰ Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услуби. -Тошкент: Фан, 1967. 12-52-б.

⁴¹ Муҳиддинов М., Каримов С. Ғафур Ғулумнинг поэтик маҳорати. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2003. 36-91-бетлар.

⁴² Қурбонов Т. Тарихий бадий асар ва давр тили масалалари.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

⁴³ Шомаксудов А. Язык сатиры Мукими (Лексика и фразеология): Автореф. дисс ... канд. филол. наук. - Т., 1956; Аҳмедов А. Фурқат поэзиясининг лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 1960; Тўрабекова С. Ғафур Ғулум поэмаларининг тили ва стили ҳақида: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. - Т., 1961; Чориев Б. Ғафур Ғулум поэзияси лексикасининг айрим масалалари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Т., 1972; Ёриев Б. Язык поэзии М. Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1979. - С. 22; Махматмуродов Ш. Язык «Дивана» Хамза Хаким-заде Ниязи: Дисс... канд. филол. наук. -Т., 1981. - С. 191; Хамидов Зиёт. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка "Лисан ат-тайр" Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1982. - С. 19; Умуркулов Б. Лексические особенности современной узбекской поэтической речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1983. - С. 18; Бабаева С. Лексико-стилистические особенности поэзии Хаида Алимджана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Т., 1989. - С. 19; Рустамов М. Гадоий девони тилининг лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Т., 1992. - Б. 141; Аҳмедов Х. Ўзбек адабиётида насрий шеър: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 1995. - Б. 24; Рихсиева Г. Шеърятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафоралар ўрни: Филол. фан. номзоди ... дисс. - Т., 1999. - Б. 117; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фанлари

Bu tadqiqotlarda poetik nutqda qoʻllangan badiiy tasviriy vositalarning lisoniy, semantik, stilistik xususiyatlarini yoritishga harakat qilingan⁴⁴. “Oʻzbek tilshunosligida keyingi oʻn yilliklarda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qoʻllashdagi oʻziga xosliklarini mufassal koʻrsatishga bagʻishlangan juda koʻplab tadqiqotlar yuzaga kelganligi quvonarlidir. Aytish lozimki, badiiy tilni oʻrganishda koʻproq leksik birliklarning lingvopoetikasiga eʼtibor qilinganligi koʻzga tashlanadi. Masalan, tilshunos L.Abdullayeva oʻzining monografiyasida oʻzbek badiiy adabiyoti tilining leksik stilistikasi muammolari haqida fikr yuritgan. E.Qilichev esa «Badiiy tasvirning leksik vositalari» (1982) deb nomlangan kitobida badiiy tasvirda ishtirok etadigan leksik vositalar, ularning ifoda imkoniyatlari bilan bogʻliq masalalar ustida toʻxtalgan. B.Umurqulovning «Poetik nutq leksikasi» (1990) nomli monografiyasida hozirgi oʻzbek sheʼriyati tilining leksik manbalari, poetik leksika, anʼanaviy poetizmlar, soʻz variantlari va ularning estetik qimmatini kabi masalalar tadqiq etilgan. Koʻrinib turganiday, oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tilining lingvopoetikasi boʻyicha ancha-muncha ish qilingan. Ammo bu yoʻnalishdagi tadqiqotlar doirasi nechogʻlik katta boʻlishiga qaramasdan, ular adabiyotimiz tarixida alohida oʻrin tutadigan jiddiy asarlarning barchasini qamrab olgan deb boʻlmaydi. Buning ustiga, mazkur tadqiqotlarning ilmiy saviyasini ham bir xil deb aytish qiyin”⁴⁵. Oʻtgan asr oʻzbek

номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2000. - Б. 24; Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нуткида антитеза (Э. Воҳидов шеърияти мисолида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2000. - Б. 26; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири, 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2004. - Б. 23; Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2004. - Б. 24; Шадиёва Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2007. - Б. 25; Тўланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърияти тилидаги бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2008. - Б. 25; Ҳайдаров А. Бадий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2008. - Б. 22; Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари доктори ... дисс. автореф. - Т., 2009. - Б. 48; Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. — Т., 2011. -Б. 25. ва бошқалар.

⁴⁴ Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нуткида антитеза (Э. Воҳидов шеърияти мисолида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2000. - Б. 26; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири, 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2004. - Б. 23; Шадиёва Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2007. - Б. 25; Тўланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърияти тилидаги бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2008. - Б. 25 ва бошқалар.

⁴⁵ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Б.9

tilshunosligiga e'tibor berilsa, badiiy matnlarni o'rganish lingvistik va stilistik yo'nalishda olib borilgan⁴⁶.

Darhaqiqat, o'zbek tilshunosligida saviyasi, ifoda imkoniyatlari turlicha bo'lgan asarlar yaratilgan bo'lsa-da, ularda hozirgi o'zbek badiiy matnining o'ziga xos xususiyatlarini u yoki bu yo'nalishda ochib berishga harakat qilingan. Adabiyotning o'rganish obyekti inson va u bilan bog'liq masalalar bo'lsa-da, ichki va tashqi omillar ta'sirida har bir millatning boshqa millatlardan ajratib, farqlab turadigan o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud. Bu haqda fikr yuritganda badiiy matnlarga sof lingvistik tahlil, uslubiyat va lingvopoetik nuqtayi nazardan yondashuvlar orasidagi farqli jihatlarni aniqlashga ehtiyoj seziladi.

Sof lingvistik kuzatishda badiiy asar tili, unda qo'llanilgan til birliklarining mavqeyini aniqlashda ularning leksik-grammatik xususiyatlariga, gapda so'zlarning o'zaro bog'lanish qonuniyatlariga asoslanilsa, uslubiy xususiyatlar esa mazkur birliklarning nutqning qaysi ko'rinishi uchun xoslanganligiga qarab belgilanadi. Lingvopoetik tahlilda esa masalaga faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki umumfilologik jihatdan yondashiladi. Til birligining ham lisoniy xususiyatlari ham poetik matnni shakllantirishdagi imkoniyatlari hisobga olinadi. Chunki yuqorida qayd etilgan tamoyillarga asoslanilsa, masalaga bir yoqlama qarash, ya'ni yo sof tilshunoslik yoki sof adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, shakl mazmundan ajratib qo'yiladi. O'tgan asrda o'zbek va rus tilshunosligida yaratilgan ko'plab tadqiqotlarda adabiyotshunoslik stilistikasi va lingvistik stilistika deb chegaralab qo'yishlar o'zini oqlamaydi. Bunday qarashga zid ravishda o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab rus tilshunosligida V.V.Vinogradov, G.O.Vinokurlar umumfilologik yo'nalishni yoqlab chiqqan edilar⁴⁷. O'zbek tilini uslubiy nuqtayi nazaridan o'rganishning haqiqiy ahvoli to'g'risida bundan chorak asr muqaddam tilshunos olim E.Begmatov quyidagicha

⁴⁶ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (махорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). – Тошкент: 1962, 173-174-бетлар.

⁴⁷ Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: изд-во Высшая школа. 1971. – 240 с.; Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: изд-во АН. 1963. – 256 с.; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991. – 448 с.

tasvirlagan edi: «O'zbek tili stilistikasi sohasida ham keyingi yillarda barakali ishlar amalga oshirildi, ayniqsa, badiiy til stilistikasi rivojlandi. Lekin bu tadqiqotlarni badiiy adabiyot tili madaniyatini ko'tarishga yetarli xizmat qilyapti, biror bir yozuvchini o'z asari tili ustida chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda, deyish qiyin. Holbuki, o'zbek badiiy adabiyoti tilida ma'lum nuqsonlar, hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar yetarli ekani sir emas. Adabiyotshunoslar esa, yozuvchi uslubini (badiiy stilni) til materialisiz, ya'ni badiiy asar tilini badiiy tahlil qilmasdan belgilashmoqda. Badiiy tilning tahlilisiz badiiy uslubni to'liq belgilash mumkinmi?»⁴⁸.

Darhaqiqat, olimning mazkur fikrlari badiiy matnlarga filologik mezonlar asosida yondashish lozimligidan dalolat beradi. O'zbek tilshunosligida badiiy matnlar bir tomondan tilimiz taraqqiyotini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etsa, boshqa tomondan adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlarning badiiy til vositalarini qo'llash imkoniyatlarini, ularning asarlaridagi personaj nutqi va muallif nutqi munosabati va unda emotsionallik, ekspressivlik, modallik, obrazlilik kabi xususiyatlarning namoyon bo'lishi haqida ma'lumot beruvchi muayyan ilmiy manba ham hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida lingvopoetik yo'nalishda olib borilgan ishlar ko'p bo'lib, keyingi yillarda bu sohada ilgari olib borilgan tadqiqotlardan jiddiy farq qiluvchi asarlar maydonga kelmoqda. Ularda mavzu mohiyatiga antroposentrik nuqtayi nazaridan yondashuv, ya'ni badiiy asar tilining uslubiy, badiiy-estetik jihatlarini to'g'ridan to'g'ri inson omiliga, uning milliy an'ana va qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatiga bog'lab talqin qilish yetakchilik qilmoqda. Badiiy matnlarni til va adabiy mezonlar uyg'unligida tahlilga tortish, ularda qo'llanilgan vositalarning lingvopoetik imkoniyatlarini belgilash ancha sermashaqqat ish hisoblanadi. Bu kuzatuvchidan mavzuga kengroq miqyosda, ya'ni inson omili bilan bog'liq sohalar nuqtayi nazaridan yondashuvni talab qiladi. Hikoyalar matnining badiiyatini ta'minlovchi leksik-stilistik vositalarni aniqlash bo'yicha tadqiqot olib borgan A.Hasanov shunday fikrlarni

⁴⁸ Бегматов Э.Назарий хулосалар тилшуносликнинг муҳим амалий вазифаларини ҳал этишга хизмат қилсин. -Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. 3-сон, Б.23.

bildiradi: "Badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon bo'lib, nafaqat adabiyotshunoslikka oid badiiy g'oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, shuningdek, tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog'lanib, o'zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni beradi"⁴⁹.

Rus tilshunosligida badiiy asar tahliliga yangicha yondashuvlar, til birliklarining badiiy asar tilida funksional semantik imkoniyatlari, badiiy–estetik vazifalari V.V.Vinogradov⁵⁰, A.A.Potebnya⁵¹, V.P.Grigoryev⁵², A.A.Novikov⁵³lar tomonidan maxsus tadqiq etilgan. O'tgan asrning oxirgi choragidan boshlab o'zbek tilshunosligida o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra badiiy asar tilini o'rganishga lingvopoetik nuqtayi nazardan yondashishga harakat qilingan turli ishlar yuzaga kela boshladi. Jumladan, tilshunos olim N.Mahmudov Oybek lirikasidagi o'xshatishlarni, Abdulla Qahhor hikoyalarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishga harakat qildi⁵⁴. S.X.Babayeva Hamid Olimjon poeziyasining⁵⁵, B.Choriyev va Sh.Egamberdiyevlar G'afur G'ulom asarlari tilining lingvopoetik xususiyatlari yuzasidan kuzatishlar olib bordilar⁵⁶. Keyingi yillarda yaratilgan lingvopoetika muammolariga bag'ishlangan yirik ishlar qatoriga I.K.Mirzayevning bir qator asarlarini kiritish mumkin⁵⁷. Ayniqsa, olimning "She'riy matnni lingvopoetik

⁴⁹ Хасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фанлари номз...дисс.автореф. Тошкент, 2010. Б.8.

⁵⁰ Виноградов В.В. О языке художественной литературы. М.: Гослитиздат, 1959; Проблемы русской стилистики. М. Высшая школа, 1981.

⁵¹ Потебня А.А. Эстетика и поэтика. М. 1973.

⁵² Григорьев В.П. Поэтика слова. М., 1979.

⁵³ Новиков А.А. Художественный текст и его анализ. М. Русский язык, 1988.

⁵⁴ Маҳмудов Н. Ойбек шеърларидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, 6-сон, 51-бет.; Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987, 4-сон, 34-38-бетлар.

⁵⁵ Бабаева С.Х. Лексико-стилистические особенности поэзии Хаида Алимджана: Автореф. дис...канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 17 с.

⁵⁶ Чориев Б. Фафур Фулом шеърлари тили. – Тошкент, 1990. –112 б.; Эгамбердиева Ш. Ф.Фулом асарлари лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1996, № 1, 48-49-бетлар.

⁵⁷ Мирзаев И.К. Некоторые проблемы общей и стилистической типологии в связи интерпритации поэтического текста // Вопросы сравнительной типологии (германские, романские, русский, тюркские языки). Тезисы докладов республиканской научной конференции. – Ташкент: изд. ТГПИИЯ, 1981, с. 223-224.; Вопросы лингвистики поэтического текста. Библиографический указатель, часть 1. – Самарканд: изд.

talqin qilish muammolari” mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi lingvopoetika sohasidagi ko‘plab munozarali masalalarga chek qo‘ydi. Ishda G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, Asqad Muxtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon kabi bir qator ijodkorlar asarlarini tahlil qilish orqali tilda mavjud bo‘lgan leksik, frazeologik va grammatik birliklarning muomalaga kiritilishi to‘g‘ridan to‘g‘ri poetik nutq talabi bilan yuzaga kelishi, til birligining poetik vositaga aylanishi so‘zlovchining kommunikativ maqsadi hamda nutq qaratilgan shaxsga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqishi, nutqiy vaziyat uchun mos keladigan poetizmlarning to‘g‘ri tanlanishi uni emotsional-ekspressiv vositaga aylantirishi ko‘rsatib berilgan⁵⁸. O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilar ekan, olimning “so‘z san’ati, til mahorati, badiiy nutq stilistikasi, so‘z estetikasi, badiiy adabiyotda so‘z kabi mavzularda yozilgan ishlarni lingvopoetik tadqiqotlar sirasiga kiritish maqsadga muvofiq emas. Chunki stilistika bilan lingvopoetika batamom boshqa-boshqa fanlardir [Bu haqda V.P.Grigoryevning «Poetika slova» (M.: Nauka, 1979) kitobining «Lingvopoetika va stilistika» fasliga qarang]. Shuningdek, lingvopoetikani tilshunoslik fanlari qatoriga qo‘yish ham to‘g‘ri emas: lingvopoetika tilshunoslik, adabiyotshunoslik va shevashunoslik fanlarida erishilgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etib, filologiyaning yaxlitligini ta’minlashni o‘z zimmasiga olgan filologik fandir” degan fikrlari diqqatga molik⁵⁹. Lingvopoetikaning ilmiy nazariy masalalari R.Kung‘urov, S.Karimov, K.Ergasheva⁶⁰, M.Mirtojiyev, N.Mahmudov⁶¹, M.Mirqosimova⁶², X.Nizamxanov⁶³, A.Sabriddinov⁶⁴, Q.Samadov⁶⁵, T.Boboyev⁶⁶

СамГУ, 1986. – 73 с.; Теория лингвистического анализа текста. Курс лекций. – Самарканд: изд. СамГУ, 1987. – 38-с.; Поэтическая рифма и структурное своеобразие языка // Актуальные вопросы романо-германской филологии и методики преподавания иностранных языков в вузе. Тезисы докладов республиканской научно-методической конференции. – Самарканд: изд. СамГУ, 1988. – 110 с.

⁵⁸ Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии), Автореф. дис... доктора филол. наук, Ташкент, 1992. – 40 с.

⁵⁹ Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлиliga бағишланган янги тадқиқот ҳақида. –Филология -10. Илмий мақолалар тўплами. – Самарканд: СамДУ, 2010. 49 - бет.

⁶⁰ Кунгуров Р., Каримов С., Эргашева К. Лингвостатистические аспекты исследования поэтических текстов современного узбекского языка // Вопросы моделирования языка и машинного перевода. Сборник научных трудов. – Самарканд, 1984, с.50-54.

⁶¹ Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –24 б.

⁶² Мирқосимова М. Бадий тил ва эпик тасвир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986, № 1, 62-66-бетлар.

⁶³ Низамханов Х. Выбор слова как проблема литературно-стилистической обработки текста : Автореф.дис. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1980. – 20 с.

larning tadqiqotlarida ma'lum darajada o'z aksini topgan bo'lsa, B.Umurqulovning hozirgi o'zbek poetik nutqining leksik xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi va qator risolalarida so'z tanlash san'ati va uning badiiy adabiyotdagi o'rni keng tahlil qilib berilgan⁶⁷.

Lingvopoetikaning nazariy masalalariga doir fikrlar prof. B.Yo'ldoshevning qator kuzatishlarida uchraydi⁶⁸. S.Karimovning "O'zbek tilining badiiy uslubi" nomli monografiyasida hamda keyinchalik shu mavzudagi doktorlik dissertatsiyasida ham qisman o'z aksini topgan⁶⁹.

G.Muhammadjonovanning "80-yillar oxiri va 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi ham lingvopoetika bilan bog'liq masalalarga birmuncha oydinlik kiritadi⁷⁰. Bu tadqiqotda lingvopoetikaning o'rganish obyekti va vazifalari, asosiy tushunchalari hamda Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, A'zam O'ktam, Iqbol Mirzo kabi ijodkorlar individual uslubi to'g'risida fikr yuritilgan.

O'zbek tilshunosligida lingvopoetika doirasidagi bir qator tadqiqotlar o'zbek xalq og'zaki ijodi materiallari asosida olib borilgan. M.Yaqubbekovanning doktorlik dissertatsiyasi o'zbek xalq qo'shiqlari va ularda qo'llanilgan ifoda-tasvir vositalarining lingvopoetik imkoniyatlarini ochib berishga bag'ishlangan⁷¹. G.Jumanazarovanning Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlari tilining lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashga oid monografiyasi ham shunday ishlar jumlasidandir⁷². Ishda Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlari tilining lingvopoetik xususiyatlarini leksik-

⁶⁴ Сабриддинов А. Сўзнинг поэтик контекстдаги хусусиятлари Ўзбек тили ва адабиёти, 1990, № 6, 42-46-бетлар.

⁶⁵ Самадов Қ. Сўз ва шеърини ифода. – Гулистон, 1994. – 35 б.

⁶⁶ Бобоев Т. Поэтика илмини ўқитиш манбалари // Халқ таълими, 1996, № 1, 107-114-бетлар.

⁶⁷ Умурқулов Б. Лексические особенности современной узбекской поэтической речи : Автореф.дис. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1982.; Сўз танлаш санъати. – Тошкент, 1985. – 30 б.; Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, 1990.; Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – 132 б.

⁶⁸ Йўлдошев Б., Шодиев З. "Уфк" трилогиясининг лингвопоэтик таҳлили. Самарқанд.

⁶⁹ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. –140 б.;

Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол.фан.д-ри. ...дис.автореф. – Тошкент, 1993. –50 б.

⁷⁰ Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бoshлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари номз... дис. автореф. -Тошкент: 2004. – 25 б.

⁷¹ Якубекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан.д-ри. ...дис.автореф. – Тошкент, 2005.– 52 б.

⁷² Жуманазарова Г. "Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил)". Тошкент, 2012.

semantik, lingvostilistik va lingvostatistik jihatdan tadqiq etish maqsad qilib olingan. Ishning mazmun-mohiyati to'rt bobga singdirilgan.

Asarning birinchi bobi shoir dostonlari leksikasining mavzuiy guruhlar va geneologik qatlamlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bunda muallif xalq dostonlari tilining bugungi kunda o'rganilishi va muammolari, leksemalar mavzuiy guruhlarining leksik-semantik tabiati, geneologik qatlamlar va ularning ichki va tashqi lisoniy imkoniyatlari haqida so'z yuritgan. Ishning ikkinchi bobida esa dostonlar matnini lingvostatistik tahlil etish usullari haqida ma'lumot berilgan. Ishda zamonaviy metod va usullar dostonlar tili va uslubi, leksik-grammatik qurilishini o'rganishda qo'l kelishi ko'rsatilgan. Uchinchi bobda esa dostonlar tilidagi stilistik formulalar, paremiologik birliklar, o'xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari va ijrochining o'ziga xos uslubi haqidagi fikrlar keltirilgan. To'rtinchi bob yuqoridagi boblarning uzviy davomi bo'lib, unda troplar va poetik sintaksis haqida fikr yuritilib, sifatlash, metafora, metonimiya, takror, sa'j san'ati kabilarning lingvopoetik imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Ish oxirida esa lingvopoetik vositalarning dostonlar tilida tutgan o'rnini belgilashga oid xulosalar bayon qilingan. Ayniqsa, muallifning dostonlar tilida qo'llanilgan birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlashga lingvostatistik jihatdan yondashuvi ishni o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan mazkur yo'nalishdagi boshqa tadqiqotlardan ajratib turadi. O'zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasida erishilgan yutuqlar bevosita tilshunos olim M.Yo'ldoshev nomi bilan bog'liq. M.Yo'ldoshevning nomzodlik dissertatsiyasi Cho'lponning badiiy til vositalaridan foydalanish mahoratini ochib berishga bag'ishlangan ⁷³. Unda muallif o'z kuzatishlarini Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida lingvopoetik vositalarning qo'llanishini tahlil qilishga qaratadi va shu orqali yozuvchining individual uslubini ko'rsatib berishga intiladi. Keyinchalik M.Yo'ldoshev o'zining Cho'lpon asarlari tili va uslubi, xususan, yozuvchi ijodida qo'llanilgan maqol va iboralarning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha olib borgan

⁷³ Йўлдошев М.М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати ("Кеча ва кундуз" романи мисолида). – Филол. фанлари номз....дисс. автореф., Тошкент: 2000. – 26 б.

kuzatishlarini “Cho‘lpon so‘zining sirlari” nomli risolasida umumlashtirgan⁷⁴. Olimning matn turlari, badiiy matnlarni lingvopoetik tahlil qilish tamoyillari bo‘yicha yaratgan asarlari o‘zbek tilshunosligida mazkur yo‘nalishdagi ishlarni bir maqsadga yo‘naltirdi desak, xato bo‘lmaydi.

M.Yo‘ldoshev matnlarni hajm belgisiga ko‘ra matn tiplari va ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko‘ra matn tiplariga ajratadi⁷⁵. Olim matnlarni hajm nuqtayi nazaridan tasniflar ekan, ularni minimal matn va maksimal matnlarga ajratadi. U minimal deyilganda badiiy uslubda biror mavzuni yoritishga bag‘ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she‘r va she‘riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlikni, makromatn deyilganda esa keng ko‘lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlikni tushunadi.

M.Yo‘ldoshev ifoda maqsadi va mazmuniga ko‘ra matn tiplarini ajratar ekan, badiiy matnning quyidagi turlari mavjudligini ko‘rsatadi: 1. Hikoya mazmunli matn. 2. Tasviriy matn. 3. Izoh mazmunli matn. 4. Didaktik matn. 5. Xabar mazmunli matn. 6. Buyruq mazmunli matn. 7. Hissiy ifoda mazmunli matn⁷⁶.

Matnning yuqorida qayd etilgan turlari mazmunan qanday bo‘lsa-da, badiiy bo‘yoqdorligi, tasviriy vositalarga boyligi va estetik ta’sirchanligiga ko‘ra badiiy uslub talablariga bo‘ysunadi.

Hikoya mazmunli matnlar muallif yoki asar qahramonlarining boshidan kechirgan voqealari, o‘zlari guvoh bo‘lgan hodisalar to‘g‘risidagi hikoyalar asosida yuzaga keladi. Ifoda uslubining o‘ziga xosligiga ko‘ra bu matn boshqa matnlardan ajralib turadi.

Tasviriy matnlar esa so‘zlovchi yoki yozuvchining voqelik faktlarini, hayotda o‘zi guvoh bo‘lgan kishilar, voqea-hodisalarni tasvirlashi bilan xarakterlanadi. Bunda adresant adresatga ma’lum bir narsa va predmet, voqea–

⁷⁴ Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 80 б.

⁷⁵ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Тошкент : Фан, 2007. Б.12.

⁷⁶ Ўша ерда. Б.18.

hodisalar, kishilar to'g'risida ma'lumot berishni ko'zda tutadi. Matnning bu turida ham xuddi hikoya mazmunli matnlar singari monologik nutqqa asoslaniladi.

Izoh mazmunli matnlarda dalillarga suyanib fikr yuritiladi. Unda so'zlovchi yoki muallif o'z fikr-mulohazalarining to'g'ri va asosli ekanligini isbotlashga xizmat qiluvchi dalil va izohlardan foydalanadi. Bunda uning fikr ifodalashdan maqsadi nutq qaratilgan shaxsni ishontirishdan iborat bo'ladi.

Didaktik matnlar pand-nasihat asosiga quriladi. Bunda so'zlovchi yoki yozuvchi tinglovchi yoki o'quvchini ma'lum yo'lga boshqarish, ma'lum bir ishni amalga oshirishga undaydi. U nutq qaratilgan shaxs ibrat olishi, xulosalar chiqarishi uchun turli hayotiy voqea-hodisalarni hikoya qilib beradi, fikrlarining ta'sirchan bo'lishi uchun tildagi har xil leksik va frazeologik vositalar, maqollardan ham foydalanadi.

Xabar mazmunli matnlar esa nutq qaratilgan shaxsga ma'lum bir voqea-hodisa, kishilar, narsa va predmetlar, hayotiy masala yoki muammolar to'g'risida ma'lumot yetkazish maqsadida tuziladi. Unda til bajaradigan eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri – xabar yetkazish yetakchilik qiladi.

Buyruq mazmunli matnlarda adresatni ma'lum bir harakatni bajarishdan qaytarish yoki ma'lum bir ishni amalga oshirishga undash asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Adresantning adresat yoshi, jinsi, oilaviy sharoiti, nutq vaziyati kabilarni hisobga olishiga qarab buyruq mazmuni maslahat ma'nosi bilan almashib turishi mumkin.

Hissiy ifoda mazmunli matnlar inson ruhiyati bilan chambarchas bog'liqligiga ko'ra matnning boshqa turlaridan keskin farq qiladi. Unda insonning turli insoniy munosabatlar yoki har xil tashqi ta'sirlar tufayli yuzaga keluvchi ruhiy holatlari, his – tuyg'ulari, ichki kechinmalari o'z aksini topadi.

Xullas, M.Yo'ldoshev tomonidan amalga oshirilgan ishlar o'zbek lingvopoetikasini yana bir bosqich yuqoriga ko'tardi. A.Hasanov bu boradagi tadqiqotlarda erishilgan yutuqlarni qayd qilar ekan, haqli ravishda shunday ta'kidlaydi: "Ayniqsa, M.Yo'ldoshev tomonidan badiiy matn lingvopoetik xususiyatlarining o'zbek tilshunosligida birinchi marta dissertatsion planda tadqiq

etilishi bu boradagi ishlarni yana bir pog‘ona yuqoriga ko‘tardi. Olim badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning yetti tamoyilini: shakl va mazmun birligi, makon va zamon birligi, matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash, badiiy matnga badiiy-estetik butunlik sifatida yondashish va asar konseptini aniqlash, badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash, badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqdi”⁷⁷.

Darhaqiqat, yuqorida qayd etilgan tamoyillar asosida lingvopoetik tahlilni amalga oshirish tilshunoslik uchun kutilgan natijalarni berishi tabiiy. Tahlilga tortilgan har bir badiiy ijod mahsuli bo‘lgan adabiy asarning lingvopoetik imkoniyatlari, emotsional-ekspressiv jihatdan mukammalligi uning asosini tashkil etuvchi badiiy tiliga qarab belgilanadi. Adabiy tilda mavjud bo‘lgan lingvopoetik vositalar bir tomondan badiiy asar tilining ifodali va ta’sirchan, mantiqiy va uslubiy ravon bo‘lishini ta’minlasa, ikkinchi tomondan asarning badiiy-estetik qimmatini oshiradi, asar qahramonlarining ichki kechinmalari, ruhiyati tasvirini berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tilshunoslik fani badiiy adabiyot bilan uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo‘lib qolmay, balki tinglovchiga ta’sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an’anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o‘rganish obyektidir”, - deb yozadi A.Nurmonov va Sh.Iskandarova. - “Lingvopoetika — lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo‘lib, badiiy asarlarda qo‘llanilgan lingvistik birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika badiiy nutqni o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limidir. Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları

⁷⁷ Ҳасанов А.А. А.Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар
Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. Тошкент, 2010. Б.8.

tez-tez uchrab turadi. Bu atamalar ifodalangan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin o‘zaro ma’lum jihatlari bilan farq qiladi. "Obraz", "Uslub", "Ko‘chim (trop)", "Badiiy til", "Stilistika", "Poetika" kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetika uchun daxldor tushunchalardir.

Amalda keng qamrovli obyektning ayrim fragmentlarigina badiiy nutqning tahliliga beriladi. Ana shunday asosiy fragment badiiy asar tili sanaladi. Ko‘rinadiki, badiiy nutq badiiy asar tiliga nisbatan kengroq tushunchadir. U tilning ekspressiv funksiyasini o‘z ichiga oladi.

Badiiy asar tili esa badiiy nutqning bir ko‘rinishi, bir fragmenti hisoblanadi. Badiiy nutqni o‘rganuvchi LP (lingvistik poetika) ham til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo‘g‘inlarning takrorlanishi she’riyatda go‘zallikni, ta’sirchanlikni ta’minlovchi vosita sanaladi. Leksik sathda leksemalarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishi ham LPning tekshirish obyekti sanaladi.

Shuningdek, gap bo‘laklarining o‘rinlashishi, gap tarkibida bir xil bo‘laklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qiladi. Shunday qilib, LP tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o‘rganishiga qarab fonetik poetika (FP), leksik poetika (LP), sintaktik poetika (SP) kabi qismlarga bo‘linadi.

LPning har qaysi turini alohida-alohida o‘rganish va ularning o‘zaro munosabatini ochish hozirgi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir”⁷⁸.

Qayd etilgan bu fikrlar mazkur yo‘nalishda olib borilgan kuzatishlarning mavzusi, tadqiq doirasi va metodlari turlicha bo‘lsa-da, bir umumiy maqsadga bo‘ysundirilganligi, ya’ni lisoniy vositalarning badiiy matnda tutgan o‘rni va vazifasini aniqlash ekanligi ularni umumlashtirib turadi. Bu esa lingvopoetikaning

⁷⁸ Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. Ўқув қўлланмаси (магистрлар учун). – Тошкент, 2008. -151-152 б.

keng qamrovli soha ekanligi, uning tilning eng kichik birliklaridan tortib nisbatan katta hisoblangan sintaktik sathgacha birday aloqador ekanligini ko'rsatadi.

I bob bo'yicha xulosa

O'zbek tilshunosligida badiiy matnning o'rganilishi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlar shundan dalolat beradiki, yurtimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi boshqa fanlar qatori tilshunoslik ilmi taraqqiyoti uchun keng yo'l ochib berdi va mustaqillik mafkurasi bilan sug'orilgan o'zbek badiiy adabiyotining rivojiga imkoniyatlar yaratib berdi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida zamonaviy tilshunoslik talablariga javob beruvchi yangi sohalar yuzaga kelmoqdaki, bu holat fanimizning taraqqiyotning yangi pog'onasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi. Bu esa badiiy matnlar lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan keng qamrovli ishlarning amalga oshirilganligida ham ko'rinadi.

2. O'tgan asrda o'zbek va rus tilshunosligida yaratilgan ko'plab tadqiqotlarda shaklni mazmundan ajratib qo'yish, adabiyotshunoslik stilistikasi va lingvistik stilistika deb chegaralab qo'yishlar o'zini oqlamaydi. Keyingi yillarda lisoniy birliklar mohiyatini ochib berishda ko'proq lingvopoetik tahlil tan olinmoqda. Lingvopoetik tahlilda masalaga faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki umumfilologik jihatdan yondashiladi. Til birligining ham lisoniy xususiyatlari ham poetik matnni shakllantirishdagi imkoniyatlari hisobga olinadi.

3. Badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatlarini lisoniy vositalarning matnda tutgan o'rni va voqelanish imkoniyatlarini tadqiq qilish orqali ochib beruvchi lingvopoetika til tizimining barcha sathlari bilan chambarchas aloqada. U yoki bu sathga tegishli bo'lgan birliklarning matnda tutgan o'rni, qo'llanish imkoniyatlari ular bajaradigan badiiy-estetik vazifaga qarab belgilanadi.

II bob

ANVAR OBIDJON SHE'RIYATIDA MA'NO KO'CHIMLARI

2.1. Yozuvchining metaforalardan foydalanish mahorati

Metafora lingvopoetik vosita sifatida ko'chma ma'no asosida yuzaga keladi. Tilimizda narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Bu lingvopoetik vosita adabiyotshunoslikda istiora deb ham yuritiladi. "Antik dunyo mutafakkirlari ham metaforaga o'z munosabatlarini bildirganlar. Masalan, Aristotel ko'chma ma'noda qo'llangan har qanday so'zni metafora deb qaragan va uni umuman troplar bilan tenglashtirib qo'ygan. Kvintilian esa uni hamma birday foydalanaveradigan tabiat ehsoni deydi. Uningcha, metafora nutqqa alohida jilo beradigan, boyitadigan qisqargan o'xshatishdir va tavakkal qilib, dadil qo'llangan metaforalargina nutqqa alohida ko'tarinkilik bag'ishlashi mumkin. Sitseron ham metaforalarni qisqartirilgan o'xshatish deb qaraydi va aytadiki, olingan ikki obyekt o'rtasida o'zaro moslik bo'lmasa, til bunday metaforalarni inkor qiladi. Bu xususida Demetriyning fikri diqqatga sazovordir: Metafora nutqqa yoqimlilik va ulug'vorlik bag'ishlaydi, ammo undan hadeb foydalanaverish kerak emas, aks holda yozilgan narsa prozaga emas, madhiya (difiramb)ga aylanib qoladi"⁷⁹.

Metaforaning lingvopoetik vosita sifatida amalda bo'lishi uni qo'llovchi kishining voqelik faktlarini qanday idrok qilishi, tanlangan til birligini nutq jarayonida qo'llay olishi, shuningdek, nutq qaratilgan shaxsga qanday munosabatda ekanligiga bog'liq. Inson umri davomida hayotda bo'layotgan har bir yangilikni nazardan qochirmaydi. Tabiatda sodir bo'lgan hodisalar, o'z sezgi a'zolari orqali idrok qilgan narsalarga xos xususiyatlarni o'rganib boradi. Ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, tahlil qilish natijasida o'z bilimlarini boyitib boradi. Shu tariqa inson ongida obrazga aylangan tushunchalar ko'chma ma'no kasb etib nozik his-tuyg'ularning yorqin ifodasi bo'lgan poetik matnlarda ham o'z aksini topishi shubhasiz. Metafora ma'lum darajada o'xshatishga yaqin turadi.

⁷⁹ Каримов С. Бадийи услуб ва тилининг ифода-тасвир воситалари. -Самарқанд, 1994. -Б.16 -17.

Tilshunos M.Yoʻldoshevning koʻrsatishicha ular orasidagi farqlar quyidagicha: “1. Oʻxshatishda soʻzlar oʻz maʼnosi bilan ishtirok etadi. Metaforada soʻzlar doimo koʻchma maʼnoda boʻladi. 2. Oʻxshatishda ikki komponent – oʻxshatiluvchi obyekt va oʻxshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli boʻladi. 3.Oʻxshatishlarda kengayish imkoniyati koʻp, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa soʻz yoki soʻz birikmasidan iborat boʻladi. 4.Oʻxshatishda maxsus koʻrsatkichlar boʻladi: -dek, -day, -simon, -larcha, -kabi, -singari, oʻxshamoq va boshqalar. Metaforalarda bunday koʻrsatkichlar boʻlmaydi. Buni quyidagi misoldan ham koʻrish mumkin: Karim tulkiday ayyor odam. Oʻxshatish konstruksiya. Bunda Karim – oʻxshatish subyekti, tulki –oʻxshatish etaloni, ayyor – oʻxshatish asosi, -day – oʻxshatishning shakliy koʻrsatkichi. Bu toʻliq oʻxshatish. Karim tulki. Bu qisqargan oʻxshatish, chunki gapda oʻxshatish asosi (qaysi xususiyati oʻxshashligi) va koʻrsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-yey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda). Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanayapti. Butunlay qayta nomlanayapti”⁸⁰

Metaforalar oʻz lingvopoetik tabiatiga koʻra doimiy va individual metaforalarga boʻlinadi. Lisoniy metafora oʻz mohiyatiga koʻra yangi soʻzlar paydo boʻlishi manbaidir. U bir tomondan tavsiflovchi, boshqa tomondan esa nutq obyektini atash vazifasini bajaradi yoki maʼlum obyektlar guruhini nomlaydi. Lisoniy metaforalar bir maʼnoni boshqasi bilan almashtiradi. Xususan, inson haqidagi ilon, ayiq, tulki, olashaqshaq kabi metaforalar tavsiflovchi metaforalar hisoblansa, stolning oyogʻi, choynakning tumshugʻi, ignaning koʻzi kabi metaforalar esa nominativ vazifa bajaradi. Metaforalar til taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Metafora insonning ichki olami namoyon boʻlishiga imkon beradi. ”Metaforasiz, - deb yozadi N.D.Arutyunova, - “koʻrinmas olam” (insonning ichki hayoti) leksikasi mavjud boʻlmas edi⁸¹. Metaforalar oʻz mazmun-mohiyatiga koʻra xalqning mental xususiyatlarini oʻzida qamrab oladi. Demak, metafora oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi yoki tilda tayyor holda mavjud boʻlmaydi. Uning inson ongida paydo

⁸⁰ Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2007. –Б.78.

⁸¹ Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. М., 1990. С. 5 –51.

bo‘lishi va badiiy ijod mahsuli bo‘lgan poetik matnga ko‘chib, lingvopoetik vosita maqomini olishi o‘ziga xos kognitiv jarayon hisoblanadi.

Aslini olganda, insonlarning ijobiy munosabati yoki baholashi zamirida uning go‘zallik haqidagi qarashlari yotadi. Albatta bu o‘z o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Inson voqelikda bo‘layotgan o‘zgarishlarni, tabiatdagi betakror manzaralarni kuzatishi, ularning mohiyatini o‘rganishi davomida ulardan zavqlanadi, ilhom oladi. U o‘zi go‘zal deb hisoblagan jonli va jonsiz narsalarga mehr qo‘yadi. Fikr ifodalash jarayonida ularga nisbat beradi, o‘xshatadi yoki narsalarni o‘z nomi bilan emas, balki o‘zi go‘zal deb hisoblagan narsalarning nomi bilan atab qo‘ya qoladi. Metaforaning badiiy matnda qo‘llanishi emotsional-ekspressivlikni ta‘minlaydi, asarning badiiy-estetik ta‘sirchanligini oshiradi. Badiiy matnda metaforalar obrazlilikni ta‘minlaydi, fikrlarni ixcham tarzda ifodalash imkonini beradi. Metaforaga xos ana shunday xususiyatlarni biz Anvar Obidjon ijodida uchratamiz. Metafora poetik matnlarda muallif munosabatini ifodalashdan tashqari nutq obyekti ijobiylik yoki salbiylik nuqtayi nazaridan baholaydi.

Quyidagi misolda oshiqning o‘z sevgilisiga munosabati metafora vositasida ifodalangan. U sevgilisiga so‘zlaganda uning nomini tilga olmaydi, balki uni “gulim” deb ataydi. Murojaatning bu shaklida muhabbat, hurmat, erkalash semalari sezilib turadi:

Qizg‘anchiq deb o‘ylama, gulim,
Bu so‘z men-chun tengdir o‘limga.
Inon,
Juda ochiqdir qo‘lim,
Hech narsa yo‘q faqat qo‘limda.

“Bir baxshiman” (B.26)

Lirik qahramon uchun sevimli qiz va gul o‘zaro egiz tushunchalardir. Ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. U shuning uchun boshqa qizlarni ham gul sifatida ko‘radi. Quyidagi misolda shu holat kuzatiladi:

Mening yorim bo‘lsangiz,
Arazlatib qo‘ymasdim.

Hatto qarib so‘lsangiz,
Boshqa gulni suymasdim.

“Mening yorim bo‘lsangiz” (B.52)

Oshiqning o‘z sevgilisiga murojaatidan ham anglashiladiki, metaforada voqelikdagi jonli va jonsiz predmetlar, narsa yoki tushunchalar o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligiga asoslanib, bir narsaga hos belgi-xususiyatlarni boshqa bir narsaga ko‘chiradi va bu o‘z navbatida nom ko‘chish hodisasini yuzaga keltiradi. Yuqorida tahlilga tortilgan misolda ishtirok etgan “gulim” so‘zi lingvopoetik vosita sifatida metaforik ma‘no kasb etgan. Metafora gul va qizni o‘zaro bog‘lab turuvchi xususiyatlar, ya‘ni ularning go‘zalligi, nozikligi, kuzatuvchiga estetik zavq bag‘ishlashi kabilar asosida yuzaga kelgan. Gul so‘zining metafora sifatida qo‘llanishi bevosita matnga bog‘liq. Uning biz yuqorida ko‘rib o‘tgan “go‘zal yor” ma‘nosi adabiy tilimizda doimiy metafora sifatida qaralmaydi. Shuning uchun gul so‘zi matndan tashqarida o‘simlik ma‘nosini ifodalash bilan cheklanadi. U yakka holda nominativ xarakterda bo‘lib, emotsional-ekspressivlikdan xoli bo‘ladi. Boshqa bir o‘rinda shoir gul leksemasi o‘rnida shunga yaqin bo‘lgan “g‘uncha” so‘zini qo‘llash bilan yangi metafora hosil qilgan:

So‘lg‘in g‘uncha edim men,
Sizni ko‘rib ochildim.
Kamalakning o‘qidek
Bag‘ringizga sanchildim.
Keldim yo‘ldan toliqib,
Qolar bo‘lsam tez uxlab,
Sochlaringiz uyg‘otsin
Yuzlarimni qitiqlab.

“Qaytish” (B.19)

Quyidagi misolda esa yorga nisbatan “oqqush” metaforasi qo‘llanilgan:

Yomonmanmi? O, yo‘q, oqqushim,
Ba‘zilardan ko‘ra aybim oz.
Sho‘xlikka goh moyildir hushim,

Goh gaplarim achchiqroq, xolos.

“Yomonmanmi?” (B.94)

Oqqush soʻzining metafora sifatida qoʻllanishida yor va oqqushning goʻzal va begʻuborligi, rangdagi oʻxshashlik asos qilib olingan. Bundan tashqari oq rangda pokizalik, begunohlik maʼnolari ham jamlangan boʻlib, muallif shu jihatlarni ham eʼtiborga olganligi tabiiy.

Metaforalar Anvar Obidjon ijodida koʻp uchraydi. Shoir tomonidan metafora sifatida tanlangan poetik obraz real voqyelikni badiiy boʻyoqlarda aks ettiradi, kitobxonga badiiy-estetik taʼsir koʻrsatadi. Tilshunoslikka doir adabiyotlarda metaforalar lingvistik va badiiy metaforalarga ajratiladi. Tilshunos B.Umurqulovning koʻrsatishicha, “til metaforasi badiiy metaforadan oʻxshashlikning formasiga koʻra farqlanadi: til metaforasi ikki predmet orasidagi bevosita yoki ochiq oʻxshashlikka asoslangan koʻchimdir. Masalan: bosh soʻzining asosiy leksik maʼnosi “bosh qism” boʻlib, togʻning boshi, yoʻlning boshi, ish boshi, joʻraboshi kabi koʻchma maʼnolarga yega. Badiiy metaforada predmetlar orasidagi oʻxshashlik asosida badiiy boʻyoq, obrazlilik yotadi. Demak, badiiy metafora til metaforasidan, dastlab, fikrni obrazli ifodalashi bilan ajralib turadi. Badiiy metaforada oʻxshashlik yashiringan holda boʻladi”⁸².

Lingvistik va badiiy metafora vazifasiga koʻra farqlanib turadi: «Badiiy adabiyotda metafora oʻxshatishning qisqargan formasi boʻlib, predmetning nomi vazifasini bajarmaydi. Chunki bunda soʻz shu nutqiy parchada ilgari hech qanday anglanmagan predmet yoki hodisani anglatadi. Metafora predmetning doimiy nomi boʻlib qolgandagina tilshunoslik fani tekshiradigan hodisa hisoblanadi. Chunki bunday metafora umumxalq tiliga xos, badiiy metafora esa, yozuvchining individual priyomiga xosdir»⁸³. Poetik matnlarda metafora ijodkorning oʻz asari tilining emotsional-ekspressivligini taʼminlashida, obrazlilik hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunos olim M.Mirtojiyev ham oʻz kuzatishlarida bu vositaning mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. U metaforaning sof

⁸² Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. Тошкент, 1990. Б.109.

⁸³ Усмонов С. Метафора.- «Ўзбек тили ва адабиёти», 1964, 4-сон, -Б.34-35.

metaforalar, sinesteziyalar va jonlantirishlar kabi turlari mavjud deb hisoblaydi: “Sof metaforalarda o‘zaro o‘xshatilgan denotatlarning biror belgisi, aniq va ko‘zga tashlanadigan belgisi asos qilib olingan bo‘ladi. Masalan, darvoza oti va ulamoq fe’lida metaforik hosila ma’no yuzaga kelar ekan, hosil qiluvchi va hosila ma’no denotatlari o‘rtasidagi o‘xshashlik shunday aniq belgiga asoslangan.

Sinesteziyalarda hosil qiluvchi va hosila ma’no denotatlari o‘rtasidagi o‘xshashlik belgilarning ongdagi umumlashmasiga asoslanadi. Masalan, mayin yung va mayin ovoz birikmalaridagi mayin so‘zining bu ikki ma’nosi denotatlari o‘rtasidagi o‘xshashlik birida tasmallashga, ikkinchisida eshitishga asoslangan belgilar ta’siri haqidadir. Sezgi ta’sirdagi umumiylik bir xil xususiyatga egadir. Sinesteziyalar asosan sifat turkumiga oid so‘zlarda va fe’l turkumiga oid so‘zlarning sezgiga ta’sir belgilarida ko‘p uchraydi. Masalan, terisi dag‘allashgan va ovozi dag‘allashgan birikmalaridagi dag‘allashmoq fe’llari leksik ma’nosiga e’tibor berish mumkin. Ularning birinchi hosil qiluvchi va hosila ma’nosi namoyon bo‘lgan. Har ikki leksik ma’no ham boshqa-boshqa sezgilarga asoslangan belgilarga ega kechimni bildiradi.

Jonlantirishlarda jonli narsa nomi bilan jonsiz narsa yoki voqelikni, umuman jonli narsaga xos belgi, harakat yoki holat nomi bilan jonsiz narsaga xos belgi, harakat yoki holatni atash va bunda o‘xshatishga asoslanish orqali mazkur nomda hosila ma’no yuzaga keltirishdir. Bu hodisa ayrim tilshunoslikka oid asarlarda personifikatsiya deb ham ataladi”⁸⁴.

Metaforalar shoir she’riyatida turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladiki, bu ijodkorning tafakkuri doirasi keng ekanligi, xalqimizning urf-odatlari, qadriyatlaridan yaxshigina xabardor ekanligidan dalolat beradi. Xalqimiz azaldan sherni kuch-qudrat, lochin, burgut, qarchig‘ayni yuksaklik, musichani beozorlik, kaptarni beg‘uborlik timsoli sifatida ulug‘lab keladi. Shoirning “burgut” so‘zini metafora sifatida qo‘llashida bu holat sezilib turadi:

Hey, otasi, so‘kmang bekorga,
O‘g‘lingizning joyida esi.

⁸⁴ Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000. -Б.10-11.

Otilmasdi asov anxorga,
 Cho'kmaslikka yetmasa ko'zi...
 Mayli, o'ynab kulsin burgutcha!
 —Otangga tik boqma, bolakay,
 Bilaman, g'irt qaysarsan azal.
 Bilaman, hech o'ylab o'tirmay,
 Otilgansan suvga tavakkal...
 Umring uzoq bo'lsin, burgutcha!

“Hey, otasi” (B.85)

Burgut metaforasida bu qushning doimo yuksaklikda parvoz qilishi nazarda tutilganligi shoirning boshqa bir she'rida qo'llanilgan “qaldirg'och” metaforasi vositasida yanada oydinlashadi:

—Armoning bormi?
 —Burgut emas, qaldirg'ochman.
 —Yupanching?
 —Chittaklardan balandroqda uchdim-ku!
 —Eng to'kis tarjimayi holing?
 —Keldim. Yozdim. Ketdim.

“Kimsan?” (B.347)

Anvar Obidjon she'riyatida qo'llanilgan metaforalar tanlanishiga ko'ra matn mazmuniga to'la mos keladi, obrazlilik, jozibadorlik, ta'sirchanlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini namoyon qiladi. Ayniqsa, shoirning sevimli yorga nisbatan gul, oqqush metaforalarini qo'llashi matn mazmunini yanada kuchaytiradi. Metaforalar kitobxonni lirik qahramonning ichki olami his-tuyg'ulari, quvonch-u umidlari bilan tanishtiradi, uning o'zini ham o'ylashga majbur qiladi, shu bilan birga unga cheksiz zavq bag'ishlaydi. Anvar Obidjon ijodida qo'llanilgan metaforalar badiiy pardozi bo'lib qolmay shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to'g'risida ham ma'lumot beradi. Shoir tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish barobarida o'zi ham yangi metaforalar yaratadi. Bunday individual metaforalar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi:

Foniy dunyo — Nuhni sotgan jonbozor,
 Umring moldir, har bir lahza — jonfurush.
 Aqlingni yigʻ, hovringni bos, boʻl iqrar:
 Buguning — bugʻ, Ertang — sarob, Kechang — tush
 “Foniy dunyo” (B.327)

Anvar Obidjon tomonidan yaratilgan quyidagi metaforik ifodalangan fikrlar ham eʼtiborga molik:

Tarix bagʻrin tilganlar — zuluk,
 Tarixga jim boqqanlar — qochqin.
 Uni chappa oʻrgangan — oʻlik,
 Uni chappa oʻrgatgan — sotqin.
 “Fitrat” (B.245)

Quyidagi parchada qoʻllanilgan metaforalar shoirning soʻz tanlashda xalq ogʻzaki ijodi materiallaridan mohirona foydalanganligini koʻrsatadi:

Xudo urgan shaytonman gohi,
 Gohi — duo tekkan farishta
 Xulqim xaqda soʻz ketgan chogʻi,
 Oʻlchanar u
 Har xil qarichda.
 Birov aytar:
 «Taniyman sal-pal,
 Koʻcha-koʻyda oʻrmalar sipoh.
 Bu toifa tulkilar azal
 Qilar faqat xilvatda gunox».

“Abdusalomning nadomati” (B.67)

Maʼlumki, poetik matnda Anvar Obidjon tomonidan nazarda tutilgan maʼnoning voqelikdagi maʼlum bir oʻxshashlik asosida koʻchishi metaforaning asosiy, muhim belgilaridandir. Metaforani hosil qilishda obrazlilik hosil qilishdan tashqari matnda boʻyoqdorlik va taʼsirchanlikni yuzaga keltirish koʻzda tutiladi.

Poetik matnning ifodali va ta'sirchan bo'lishi, lingvopoetik vositalarga, emotsional-ekspressiv so'z va iboralarga boy bo'lishi ijodkorning lisoniy zaxirasiga, ona tilimiz qonuniyatlaridan qay darajada xabardor ekanligiga bog'liq. Shunga ko'ra badiiy matnlarda turli so'z turkumlariga oid metaforalar uchraydi. A.Hasanovning qayd etishicha, "A.Qahhor individual metaforalar yaratishda ot, sifat, fe'l turkumiga oid leksemalardan unumli foydalangan. Jumladan, ot-metaforalardan o'z ideolektida reallashgan xususiy yashirin ma'nolarni implitsit tarzda ifodalashda, ta'sirchan, obrazli ifodalar yaratishda; sifat - metaforalarning konnotativ ma'nolaridan qahramonlarning xarakter-xususiyati, siyrat va suratini tasvirlashda, asar kompozitsiyasida voqealar rivojida yechiluvchi mavhum konsituatsiyaga ishora qiluvchi tugun hosil qilishda va badiiy-g'oyaviylikka erishishda; fe'l - metaforalardan voqea-hodisaning intensivligini oshirishda, personajlar xarakter-xususiyatiga implitsit ishora qilishda ta'sirchan omil sifatida foydalanib, hikoyalarning tasviriyligini, badiiy-estetik quvvatini oshirgan".⁸⁵

Xullas, Anvar Obidjon she'rlarida qo'llanilgan metaforalar mavzu mohiyatini ochib berishda, shoir tomonidan tasvirga olingan nutq obyektni ta'riflash va kitobxon tasavvurida muallif istaganday gavdalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

⁸⁵ Hasanov A.A. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фан.номз. ...дисс. автореф. Тошкент, 2010. Б.9-10.

2.2. Anvar Obidjon ijodida metonimiyaning lingvopoetik xususiyatlari

Metonimiya –grekcha –metonymia soʻzidan olingan boʻlib, boshqacha nom berish degan maʼnoni bildiradi. Metaforaga oʻxshash tropning asosiy turlaridan biri boʻlgan metonimiya ham soʻzlarning koʻchma maʼnosiga asoslanadi. Ammo bu yerda asosan biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga koʻchiriladi. Bu predmet yoki voqea-hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan oʻzaro bogʻlangan boʻladi. Bundan tashqari, metaforada bir-birlariga oʻxshash predmet va ularning belgilari koʻchirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi koʻrinish yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi boʻlsa ham, ammo, umuman, bir-birlaridan farq qiluvchi (bir-biriga oʻxshamagan) predmetlar belgilari chogʻishtiriladi.⁸⁶

Metonimiyalar poetik matnlarda turli koʻrinishda namoyon boʻlishi mumkin. Anvar Obidjon ijodida ham metonimiyalar uchraydi. Masalan, quyidagi sheʼriy parchada qoʻllanilgan Afrika soʻzi ana shunday metonimik xususiyatga ega:

Zambaraklar hanuz aytmoqda oʻlan,
Miltiqlar madh etar
Bedavolikni.
Afrika olishar Afrika bilan,
Osiyolik soʻyar osiyolikni.

“Tentaklar oʻyini” (B.345)

Boshqa lingvopoetik vositalar singari metonimiyalar poetik matnlarda maʼlum bir vazifani bajarishga xoslangan. Ularning eng asosiy xususiyatlaridan biri shuki, poetik matnlarda metonimiyalar bir tomondan sheʼriy asar tilining oʻziga xosligini taʼminlasa, ikkinchi tomondan muallifga tasvirlanayotgan predmetning oʻquvchi uchun muhim hisoblangan tomonini qisqa, tejab ifodalash imkonini beradi.

Quyidagi misolda qoʻllanilgan chehra soʻzi metonimik xarakterda boʻlib, u insonga ishora qilish bilan birga ijobiy munosabatni ham anglatib kelmoqda.

⁸⁶ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: Фан, 1977. Б.19.

Duch keladi yuzlab chehralar,
 Ko‘pin qaytib ko‘rmoqlik mahol.
 Ular dilga yaqin naqadar,
 Shuning o‘zi tuganmas iqbol.
 Barchinoylar nigohida sir,
 Alpomishlar ko‘zida yashin.
 Yoshlik qaytar qalbga sochib nur,
 Eslaysan ilk sevgi otashin...
 Hayotning har lahzasi go‘zal,
 Umrning har dami g‘animat.

“Hayotning har lahzasi go‘zal” (B.325)

Anvar Obidjon ijodida bu kabi metonimiyalarni ko‘plab uchratish mumkin. Shoir ijodida qo‘llanilgan metonimiyalar fikr ifodalashda ixchamlikni yuzaga keltirishi, ta’sirchanligi kabi xususiyatlari bilan ijodkorning ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

2.3. Sinekdoxa va uning lingvopoetik xususiyatlari

Anvar Obidjon ijodida lingvopoetik vositalardan hisoblangan sinekdoxalar ham kam miqdorda bo‘lsa-da, uchraydi. O‘zbek tilshunosligida ifoda-tasvir vositalari bo‘yicha yaratilgan ishlarda sinekdoxaga quyidagicha ta’rif berilgan: Sinekdoxa grekcha –synekdoche so‘zidan olingan. Bu ham tropning bir turi bo‘lib, predmetlarga nisbatan qo‘llanadigan son bilan bog‘langandir, ya’ni predmetlarning son jihatdan birining (qismi, to‘la) ma’nosi ikkinchisiga ko‘chiriladi. Butun o‘rnida qism (yohud, aksincha) yoki birlik o‘rnida ko‘plik (yoki aksincha) qo‘llanilishini ham bunga misol sifatida ko‘rsatish mumkin.⁸⁷

Sinekdoxalar lingvopoetik hodisa sifatida tilshunoslikda metonimiyaning bir ko‘rinishi, bir-biriga yaqin hodisalar sifatida talqin qilinadi. Anvar Obidjon

⁸⁷ Қўнғуров Р.Қ. Танланган асарлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. Б.322.

quyidagi parchada sinekdoxaning qism orqali butun ifodalangan ko‘rinishini qo‘llagan.

Atom kecha qonga cho‘ktirdi Xirosimani,
bugun dahshatga solmoqda odamni,
ertaga kultepa qilishi mumkin olamni.
Nega endi hammangiz
sho‘rli Eynshteynga xo‘mrayasiz?

“Atom” (B.38)

Misolda qo‘llanilgan “odam” so‘zi yakka shaxsni emas, balki butun insoniyat ma’nosini ifodalamoqda.

Ta’mayuqi tuzlardan,
Nomehribon ko‘zlardan
Omon asra meni, charx!

“Urilajak do‘qlardan” (B.4)

Keltirilgan misolda ishtirok etgan “ko‘z” leksemasini qo‘llashda muallif insonni nazarda tutmoqda. Sinekdoxaning fikr ifodalashda muhim vosita ekanligi quyidagi parchada ham ko‘zga tashlanadi:

Omon qoldi mag‘rur bosh,
Tanda — chayir jonimiz.
Aynimasa bas, do‘stim,
Kelajakda qonimiz...

“Qirg‘iz do‘stimga” (B.54)

She’rda qo‘llanilgan bosh leksemasi odam ma’nosini anglatmoqda. Quyidagi misollarda esa kitob so‘zi ataylab tushirib qoldirilgan va asar nomigina keltirilgan:

Tuyadek bosh suqib do‘konga,
Sotuvchiga aylaydi ta’zim:
—Bir yaxshilik qiling insonga,
— Kerak edi bitta «Azizim».

“Kitobboz” (B.133)

yoki

Ko‘rib yo to‘zg‘igan gullarni,
 Hislaring keldimi junbushga,
 Varaqlab yo «O‘tkan kunlar»ni,
 Azador bo‘ldingmi Kumushga,
 Kipriging nega nam, Jonginam?

“Kipriging nega nam” (B.6)

Bu kabi sinekdoxalar Anvar Obidjon she‘riyatida talaygina. “Misollar tahlili sinekdoxaning katta umumlashtiruvchilik imkoniyati borligini ko‘rsatadi va unda badiiylik hamma vaqt ham ko‘zga tashlanavermaydi. Garchand umumlashtirish qisqalikning asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, badiiy adabiyot tili uchun nihoyatda zarur sanalsa-da, bu xususiyat uning boshqa funksional uslublarda ham bemalol ishlatilaverishiga to‘siqlik qilmaydi. Bundan tashqari u takrordan qochishga, yaqinlik ma‘nosini ifodalashga, ayrim ma‘nolarni ta’kidlashga xizmat qilishi mumkin.”⁸⁸ Ko‘rinadiki, insoniyat tinimsiz taraqqiyotda bo‘lar ekan, hayotda sodir bo‘layotgan har bir o‘zgarish tilimizda o‘z aksini topadi. Shunday ekan, tilimizda yangidan yangi vositalarning paydo bo‘lishi tabiiy. Lingvopoetik vositalar badiiy matnlarda obrazlilik, emotsional-ekspressivlik hosil qiluvchi vositalar sifatida o‘z imkoniyatlarini namoyon qiladi.

⁸⁸ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. Б.30.

II bob bo'yicha xulosa

Bayon qilingan fikrlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tilimizda so'zlovchi yoki yozuvchi uchun fikr ifodalashda qulaylik tug'diruvchi usul va vositalar ko'p bo'lsa-da, nutq jarayonida ba'zan so'zlovchi o'z kommunikativ maqsadiga erishishda qiynalib qoladi. U tomonidan tanlangan birliklar qo'yilgan maqsadning to'la amalga oshishini ta'minlay olmay qoladi. Ana shu ehtiyoj so'zlovchi uchun nutq obyektini to'la tasvirlashiga mos keluvchi lisoniy birliklarni metaforik tarzda qo'llashi uchun imkoniyat yaratadi.

2. Badiiy matnlarda bo'yoqdorlik hosil qiluvchi, ifodalanayotgan ma'no ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi metonimiyalar poetik ohangdorlikni yuzaga keltirishdan tashqari fikr ifodalashda ixchamlikni, tejankorlikni ta'minlaydi.

3. Poetik matnlarda faol qo'llanuvchi metaforik ma'nolar umumiy ma'nolar asosida xosil qilinadi. Ularning subyektiv munosabat ifodalash imkoniyatlari poetik matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

4. Til birliklarining poetik matnlarda metafora, metonimiya yoki sinekdoxa vazifasida kelishi va lingvopoetik vazifa bajarishi so'zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadiga bog'liq. Til birliklari poetik matnlarda muallif maqsadiga mos tarzda o'z ma'no anglatish doirasini kengaytirib boradi.

III bob

ANVAR OBIDJON IJODIDA SEMANTIK-STILISTIK VOSITALAR

Avvalo, filologiya ilmda badiiy matn deyilganda, ma'lum bir xalqning o'tmishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, uzoq asrlik tarix voqealarining guvohi bo'lgan, yuzlab yillar mobaynida avlodlardan – ajdodlarga an'ana tarzida o'tib kelgan va bugungi kunga qadar saqlanib qolgan o'ziga xos xususiyatlarning badiiy tarzda, tilimizdagi badiiy vosita va usullar yordamida o'z qiyofasiga ega bo'lishi tushuniladi. Badiiy ijod va uning turli ko'rinishdagi turlari paydo bo'lishi va shakllanishiga muayyan millat yashaydigan hudud, u yerda yashovchi xalqlar va elatlarning turmush tarzi, siyosiy-iqtisodiy sharoiti, ma'naviy dunyoqarashi, o'ziga xos urf-odatlar-yu milliy qadriyatlari sezilarli darajada jiddiy ta'sir ko'rsatadi va tabiiyki, bu o'z – o'zidan badiiy ijodda ham o'z aksini topishi shubhasiz. Badiiy matnlarda o'zaro insoniy munosabatlarning qay tarzda shakllanishi bevosita bir qator omillarga bog'liq. Bunday omillar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

kishilarning lisoniy imkoniyati, ya'ni muloqot jarayonida foydalanadigan muayyan lisoniy kod haqidagi bilimlari;

milliy mansubligi;

ijtimoiy-madaniy mavqei (sotsial mansubligi, kasbi, lavozimi, madaniy saviyasi va urf-odatlar, ma'lumot darajasi, yashash joyi, oilaviy ahvoli);

biologik-fiziologik belgilari (jinsi, yoshi, sog'ligi, jismoniy nuqsonlari bor-yo'qligi);

psixologik tipi (mijozi, fe'l-atvori, ruhiy belgilari);

muloqot jarayonidagi ruhiy holati (kayfiyati, muloqot mavzusi haqidagi bilimi, maqsad va qiziqishlari);

kommunikantlarning tanishlik darajasi;

did-farosati, ishtiyoq va odatlari;

tashqi ko'rinishi (kiyinishi, qiliqlari va h.). Har xil sotsiumda bu belgilar bir xil qiymatga ega bo'lmaydi va shuning uchun ular nutqiy muloqotda har xil

darajada aks etadi, ammo bir butun holda kommunikativ ahamiyatli belgilar majmuini tashkil qiladi ⁸⁹.

Tilimizda kishilar orasidagi nutqiy aloqani ta'minlashga xizmat qiluvchi usul va vositalar ko'p. Kishilar ijtimoiy faoliyatida til muhim quroldir. Kishilar o'zaro munosabatga kirishishda avvalo, nutqning qaysi shakli va ko'rinishidan foydalanishiga, kommunikativ maqsadning qanday ekanligi hamda uning samarali yakun topishiga intilishiga qarab nutqiy vaziyat uchun mos keluvchi til birliklarini tanlab oladilar va muomalaga kiritadilar. So'zlovchi kommunikativ maqsadiga bo'ysundirilgan lisoniy birlik ham shunga moslashadi, nutqiy vaziyatdan kelib chiqib butunlay boshqa ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Bunday holda nutq ishtirokchilarining o'zaro munosabati, voqelik faktlarini baholashga hamda o'z hissiyotlarini, ruhiy kechinmalarini tinglovchiga yoki o'quvchiga yetkazish zarurati tilda yangidan-yangi usul va vositalarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. "So'z orqali inson katta yutuqni qo'lga kiritdi, bu vosita natijasida uning olami ikkilandi. So'zga ega bo'lgunga qadar faqat bevosita ko'rinib turgan narsa bilan ish ko'rgan mavjudot tilga ega bo'lishi bilan faqat borliq elementlari bilangina emas, balki bevosita kuzatmagan narsa va hodisalar bilan ham ish ko'ra oladigan bo'ldi. So'z insonga bevosita kuzatishda berilmagan narsa va hodisalar haqida ham axborot bera oladi. Shuning uchun ham hayvonot faqat bir olamga - sezgi orqali his qilish mumkin bo'lgan predmetlar olamiga ega bo'lsa, inson ikki olamga - sezgi orqali his qiladigan olam bilan birga, so'z orqali ifodalanadigan obrazlar, munosabat, sifatlar dunyosiga ega bo'ldi"⁹⁰. Ko'rinadiki, kishilar o'rtasida sodir bo'luvchi har bir muloqotda, u yozma shaklda bo'ladimi yoki og'zaki shaklda amalga oshadimi, bundan qat'iy nazar, tilning u yoki bu ijtimoiy vazifasi namoyon bo'ladi. Og'zaki muloqotda ishtirokchilarning kommunikativ maqsadiga ko'ra tilning aloqani ta'minlash va xabar yetkazish vazifasi yetakchilik qiladi. Yozma nutqda, xususan badiiy nutqda esa qo'llanilgan til birliklari vositasida tilning ta'sir etish vazifasi amalga oshadi. Asrlar davomida so'zga ana shu xususiyatlarni o'zida

⁸⁹ Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Л., 1990.С.29.

⁹⁰ Нурмонов А., Искандарова Ш.Тилшунослик назарияси. Ўқув қўлланмаси (магистрлар учун). – Тошкент, 2008. -176 б.

jamlagan ilohiy ne'mat deb qaralgan, til birliklaridan mohirona foydalanish badiiy san'at sifatida ulug'langan. Davrlar o'tishi bilan fikr ifodalash usullari takomillasha borgan va bunday vositalarning yuzdan ortiq turi ma'naviy va lafziy san'atlar sifatida adabiyotdan muhim o'rin egallagan.

O'zaro aloqa jarayonida so'zlovchi yoki yozuvchining o'z kommunikativ maqsadiga erishishi muloqotning tashqi va ichki omillariga bog'liq bo'ladi. Bunda u muloqotning ana shu omillariga tayangan holda ko'zlangan maqsadidan kelib chiqib doimo suhbatdoshlari e'tiborini o'ziga qaratishga, fikrlarini ifodali va ta'sirchan, go'zal jumlar vositasida ifodalashga intiladi. "Muloqotning tashqi omillari (tarkibiy qismlari) muloqotning maqsadi, undagi tinglovchi va so'zlovchining maqsadi, muloqot voqelanayotgan shart-sharoit, vaziyat kabilarni kiritish mumkin. Chunonchi, muloqot maqsadi muloqot mazmunini belgilaydi. Vaziyat uning shaklini va ko'p hollarda muloqotning ichki tarkibiy qismi bo'lgan lisoniy va nolisoniy omillar tabiati va turlarini belgilaydi. Shunday qilib, muloqotning ichki omillariga: lisoniy va nolisoniy vositalarni kiritishsa to'g'ri bo'ladi."⁹¹ Muloqotning ichki omillari hisoblangan ayrim til birliklari nutqning turli ko'rinishlarida faol, boshqalari kam qo'llanilsa, ba'zilar juda kam miqdorda ishtirok etadi. Bu esa o'z navbatida til birliklari orasida funksional xoslanishni yuzaga keltiradi. Tilimizda obrazlilikka asoslangan, ma'no ko'chishi asosida yuzaga kelgan bunday vositalar troplar, qo'shimcha ma'no ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar esa uslubiy figuralar deb nomlanadi. Tilshunos olim N.Mahmudov shunday fikrlarni bildiradi: "Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar (yoki troplar) nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylilik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Shuning uchun ham ko'chimlar o'ziga xos tasviriylilik vositalar sifatida nutqning

⁹¹ Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Самарқанд, 2007. Б.34.

ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi"⁹². Troplarning lingvopoetik vosita sifatida qo'llanish imkoniyatlari asosan badiiy matnlar uchun xos. "Ularning troplap deb ataluvchi qismi obraz yaratishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi bir qismi – uslubiy figuralar esa, garchi obraz yaratmasa-da, ana shu obrazlarning shakllanishiga, barkamol, pishiq bo'lishiga, o'quvchining matnni to'g'ri va tez tushunib olishiga ko'maklashadi. Ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan, obraz yaratayotgan til birliklari darajasida bo'lmasa ham, ular vaziyatga qarab qo'shimcha ma'no ifodalaydi, tasvir obyektiga ijodkor bahosini beradi, yuksak emotsionallikni yuzaga keltiradi."⁹³

Quyida badiiy matnda emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi lingvopoetik vositalarning Anvar Obidjon ijodida qo'llanishi haqida fikr yuritamiz.

3.1. Anvar Obidjon she'riyatida o'xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari

Ma'lumki, badiiy ijodni, xususan, poetik nutqni lingvopoetik vositalarsiz tasavvur etish qiyin. Poetik matnlar tilining emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri o'xshatishdir. O'xshatish lingvopoetik vosita sifatida poetik matnlarda bir qator vazifalarni bajaradi. Avvalo, o'rinli qo'llanilgan o'xshatish vositasida ma'lum bir voqea-hodisa, narsalar o'quvchi ko'z o'ngida aniq gavdalantiriladi. Muallif fikrlari obrazli tarzda o'quvchiga yetkaziladi va muallifning asosiy maqsadi – kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish amalga oshiriladi. O'xshatishlarning poetik matnlardagi vazifasi bu bilan cheklanmaydi. Ular vositasida asar tilining emotsional-ekspressivligi ta'minlanadi, muallif individual uslubi, u mansub bo'lgan xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlari, hayot tarzi va dunyoqarashi, e'tiqodi, asrlar davomida shakllangan an'analari va urf-odatlari bilan bog'liq jihatlar ham o'z poetik tasviriga ega bo'ladi. Illokutiv aktning yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etuvchi o'xshatishlar poetik matnlarda bundan tashqari tasvirlanayotgan

⁹²Махмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. 2006, №2. 68- бет.

⁹³ Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода-тасвир воситалари. Самарканд, 1994. Б.5.

shaxsning, lirik qahramonning ichki dunyosi, his-tuygʻulari tasvirini berishning ham eng qulay vositasidir. Muallif kommunikativ maqsadining qanday ekanligi nominativ xarakterdagi lisoniy birlikni poetik matnda badiiy-estetik taʼsirchanlikni taʼminlovchi lingvopoetik vositaga aylantiradi va uning mazmun mundarijasini belgilab beradi. Ana shundan kelib chiqib, oʻxshatish deganda «ikki narsa yoki voqea-hodisa oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini toʻlaroq, konkreteroq, boʻrttiribroq ifodalash» tushuniladi.⁹⁴

Poetik matnlarda oʻxshatish hosil qiluvchi vositalarning qoʻllanishi haqida uslubshunos olim R.Qoʻngʻurov bu lingvopoetik vositani yuzaga keltiruvchi komponentlarni qayd qilar ekan, shunday misollarni keltiradi: ”shoirning qoʻshiqlaridan ilhomlangan oʻzbek yigitlari frontga borib, sherday jang qildilar (H. Olimjon. «Oʻzbek xalqi adabiyoti», 1948, III).

Togʻlardagi qip-qizil lola

Boʻlib goʻyo yoqut piyola

Buloqlardan uzatadi suv

El koʻzidan qochadi uyqu. (H. Olimjon, I).

Keltirilgan misollarning birinchisida oʻxshatilgan predmet yigitlar (1), oʻxshatiladigan predmet sher (2), jang oʻxshatish asosi (belgi) (3), -day esa oʻxshatish vositasi (4) hisoblanadi. Ikkinchi misolda oʻxshatilgan predmet (1) lola, oʻxshatiladigan predmet 2) piyola, asos (3) yoqut va oʻxshatish vositasi (4) goʻyodir .

Oʻxshatishni unga yaqin va aloqador boshqa tasviriy vositalardan (xususan, metafora, epitet, jonlantirish kabi) farqlashda mana shu aʼzolarining boʻlishini hisobga olish katta ahamiyatga ega⁹⁵.

Maʼlumki, insonning ijodiy faoliyati mahsuli boʻlgan badiiy matnlar lingvopoetik tahlil uchun material vazifasini oʻtaydi. Tabiiyki, matndan tashqarida, alohida belgilab olingan soʻz yoki iborani tahlilga tortish orqali ijodkorning

⁹⁴ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983. Б.239.

⁹⁵ Қўнғуров Р.Қ. Танланган асарлар. Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. Б.337.

boshqalardan ajralib turadigan oʻziga xos boʻlgan uslubi, u tomonidan yaratilgan poetik matnda ishtirok etgan lirik qahramonlar yoki personajlarning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlab boʻlmaydi. Shuning uchun poetik matnning deyarli hamma koʻrinishlarida u yoki bu darajada namoyon boʻluvchi oʻxshatish hodisasini yuzaga keltirishda ishtirok etuvchi birliklarning matndagi mavqeini, oʻxshatish etalonining badiiy-estetik taʼsirchanlikni taʼminlashdagi rolini aniqlash mazkur hodisaning lingvopoetik xususiyatlarini belgilashga imkon beradi. Oʻxshatishlarning hosil boʻlishi zahirida muallifning kommunikativ maqsadi, uning voqelik faktlariga boʻlgan munosabati, ularni lisoniy va nolisoniy omillarga tayangan holda baholashga intilishi yotadi. Tilimizda nutqning turli koʻrinishlarida, xususan, ogʻzaki soʻzlashuvda va badiiy nutqda, qisman publististik matnlarda ham tez-tez uchrab turadigan “muzday suv”, “qoʻyday yuvosh”, toshday qattiq”, “paxtaday yumshoq”, “choʻchqaday semiz”, “tulkiday ayyor”, “terakday uzun” kabi bir qator oʻxshatishlar nutqimizda koʻp qoʻllanilganligi, tasvir obyektlarining maʼlum bir sifatiga izohlash bilan cheklanib qolganligi uchun obrazlilik, taʼsirchanlik xususiyatini deyarli yoʻqotgan. Ular bugungi kunda anʼanaviy oʻxshatishlar hisoblanadi. Badiiy matnlar esa kutilmagan, kitobxon ruhiyatiga kuchli taʼsir qiluvchi, obrazlilik hosil qiluvchi vositalar hisobiga poetik qimmat kasb etadi. Tilimizda “Oʻxshatishlarning ikki turi, yaʼni: 1) individual-muallif oʻxshatishlari yoki erkin oʻxshatishlar va 2) umumxalq yoki turgʻun (doimiy) oʻxshatishlar farqlanadi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin oʻxshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida oʻrin tutadi. Yozuvchi oʻzining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original oʻxshatishlar yaratadi, bu oʻxshatishlar kutilmaganligi, ohorlilik bilan oʻquvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni oʻquvchi koʻz oʻngida yaqqol gavdalantiradi”⁹⁶. Anvar Obidjon sheʼriyatida qoʻllanilgan oʻxshatishlar betakrorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni oʻziga jalb etadi, unga zavq bagʻishlaydi. Bu esa shoirning tilimiz yashirin imkoniyatlari, oʻxshatish hosil qiluvchi vositalarni yaxshi bilishidan dalolat beradi.

⁹⁶ Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули. Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон.

Ma'lumki, tilimizda o'xshatish hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar bor. Leksik vositalar kabi, singari, qadar, yanglig', bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand, xuddi, naq, go'yo, teng, o'xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo'lmoq, bir, aynan, o'zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki va boshqalar kirsalar, grammatik vositalarga – day (-dek) -dak -(tak) -dag' (-dog') -dayin, -dan, -dir, -namo, -simon, -ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, -chalik, -chasiga) kabilar kiradi. O'xshatish hosil qiluvchi –dek, -saro, kabi vositalar ishtirokidagi poetik tasvirning yuksak namunasini shoirning "Kayfiyat" she'rida ko'rishimiz mumkin. She'rni o'qir ekanmiz ko'z o'ngimizda tol tagidagi ariq labida turgan oshiq yigit gavdalanadi. Esayotgan shamol, to'kilayotgan barglar, maysalar, ko'kdagi oy va bir parcha bulut, yalpiz hidi – oddiygina tabiat unsurlari shoir nigohida xalqalar singari ulashib, oshiq yigit ruhiyatini tasvirlovchi vositalar zanjiriga aylanadi. Inson va tabiat o'zaro uyg'unlashib, yaxlitlik hosil qiladi. Natijada kutilmagan poetik manzara yuzaga keladi. Mana dastlabki holat:

Go'rdek sokin ariqning labi,

Boshim uzra motamsaro tol.

Avvalo, o'xshatish uchun asos bo'lgan birliklarning tanlanishi, ariq labidagi tinch, osudalikning kutilmaganda go'rdagi sokinlikka qiyoslanishi, tolning ko'rinishi esa motamsarolikka nisbat berilishi o'quvchi ko'ngliga qandaydir mahzunlik olib kiradi, unga lirik qahramon ichki kechinmalari to'g'risida ishora beradi. Keyingi misralardagi o'xshatishni yuzaga keltiruvchi "kabi" leksemasi vositasida esa bu mazmun yanada kuchaytiriladi. Anvar Obidjon o'xshatish hosil qiluvchi "kabi" leksemasi vositasida kutilmagan obrazlilikni yuzaga keltiradiki, kitobxon beixtiyor tasvirlangan obyekt haqida o'ylay boshlaydi, uning shakli shamoyili va mazmun-mohiyatiga lirik qahramon ko'zi bilan nazar tashlaydi. Shoir poetik ta'sirchanlikni kuchaytirish maqadida shamol obrazini matnga olib kiradi va uni perronda daydib yurgan bezoriga o'xshatish orqali kitobxonda hushtak chalib esayotgan shamolni idrok qilish bilan birga bezorining bemaqsad va beg'am kezishi haqida muayyan tasavvur uyg'otishga erishadi:

Perrondagi bezori kabi

Hushtak chalib sang'iydi shamol.

kabi kutilmagan o'xshatishi Anvar Obidjonning o'xshatish hosil qilishda tasvirlanayotgan obyekt (shamol) va o'xshatilgan narsa (perrondagi bezori) o'rtasidagi ichki aloqadorlikni saqlab qolishga muvaffaq bo'lganligidan dalolat beradi. O'xshatishni yuzaga keltiruvchi vositalarning o'rinli qo'llanishi bilan badiiy tasvirning estetik ta'sirchanligi orta boradi. Vaholanki, "Estetik butunlik bo'lgan badiiy asar ijodkori uchun narsalarning konkret mohiyati emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatliroqdir."⁹⁷ Keyingi misralarda tabiat hodisalari va oshiq ruhiyati o'zaro birlashadi. Tasvir asta-sekin insonga va undan yana tabiat manzarasiga ko'chadi:

Ko'zyoshlardek to'kilar barglar,
Hislarimdek maysalar to'zg'in.
Ko'kdagi oy — quvg'indi kaptar,
Kulrang bulut — och qolgan quzg'un.

Poetik tasvirni kuchaytirib, o'xshatish vositasida kutilmagan holatlarni aks ettirish, kitobxonni zavqlantirib, hayratga solish Anvar Obidjon individual uslubiga xos. U oshiq yigit ruhiy holatini tasvirlashda shu vaziyatga mos keluvchi vositalardan, hammaga tanish bo'lib qolgan so'zlardan, oddiy tashbehlardan qochadi. Buning o'rniga o'quvchi kutmagan, bugungi tilshunoslikda yetakchilik qilayotgan antroposentrik nazariyaga mos keluvchi yangi poetik tasvir yaratadi. She'rdan anglashilicha, barglarning to'kilishi umidsizlik, tugallanish belgisi va u oshiqning besamar ko'z yoshlariga monand. Shamolda tebranayotgan to'zg'in maysalar esa oshiqning beqaror his-tuyg'ulari aksi. Ruhiy iztirob chekayotgan oshiq holati navbatdagi misralarda oy va bulut, kaptar va quzg'un leksemalarini o'zaro kontrast qo'yib tasvirlash orqali ochib beriladi. O'quvchida och qolgan quzg'unga o'xshash bulutdan kaptar kabi qochayotgan oy aslida oshiqning o'zi, uni qandaydir noxushliklar kutmoqda, degan tasavvur paydo bo'ladi.

⁹⁷ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутки маданияти. Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти. Тошкент, 2009. Б.78.

Keyingi misralarda qo‘llanilgan o‘xshatish hosil qiluvchi “kabi” leksemasi vositasida buning sababi birmuncha oydinlashadi:

Tun sayliga shaylangan chog‘i
 Atir sepib olgan kabi qiz,
 Dimog‘imni qitiqlar gohi
 Shabnam-sirg‘a taqqan g‘ar yalpiz.

Barglarida kechki shabnam tomchilari yaltirab turgan yalpizning hidi lirik qahramonga zavq bag‘ishlash o‘rniga azobli kayfiyat bag‘ishlaydi. O‘z hidi bilan yon-atrofni o‘ziga qaratgan yalpizni u tun sayliga chog‘lanib, o‘ziga atir sepib, yasanib tusangan yengiltak qizga o‘xshatadi. Shunisi xarakterliki, shoir poetik tasvirni berishda odob-axloq mezonlariga amal qiladi, qizni kamsitishdan, unga nisbatan qo‘pol mazmunli so‘zlarni qo‘llashdan tiyiladi. Ammo u fikr ifodalashda nutqiy vaziyat uchun mos bo‘lgan implitsit usulidan foydalanib, shabnam-sirg‘a taqqan yalpizni “g‘ar” deb ta’riflash, baholash bilan nimalargadir ishora qiladi. O‘zining nima demoqchi ekanligini anglashni o‘quvchi hukmiga havola qiladi.

Ruhiy iztirobda o‘tirgan oshiq tabiatdagi har bir hodisani o‘z holatiga mengzaydi, undan o‘ziga o‘xshash jihatlarni axtaradi. Hattoki,

“Nelar hakda kuylar chigirtka,

U ham ishqdan kuyganmi yoxud?” deb chigirtka chirillashida ham o‘ziga o‘xshash holatlarni ko‘radi. She’rning so‘nggi misralarida lirik qahramon ichki olam, his-tuyg‘ular manzilidan yana voqelikka qaytadi, yon –atrof yana o‘z asl qiyofasida bo‘y ko‘rsatadi.

O‘tiribman cho‘mi-i-b sukutga,
 Aytolmasdan dardim men noshud.

“Kayfiyat” (B.15)

Tasvir shu yerda tugaydi, ruhiyat olamida kezman, har bir hodisada o‘zini, o‘zidagiga o‘xshash holatlarni ko‘rgan lirik qahramon yana oddiy insonga, dardlarini birovga ayta olmaydigan “noshud” oshiqqa aylanadi. Inson ruhiy holatining bu tarzda ochib berilishi faqat Anvar Obidjon uslubiga xos deyish mumkin. ”Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so‘z tanlash

san'ati bilan belgilanadi. Bu o'z o'rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, ya'ni badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati – lingvistik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi. Chunki yozuvchi uslubida san'atkor tomonidan estetik jihatdan qo'llangan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan ichki bog'liqlik asosida birlashadi"⁹⁸. Yuqorida keltirilgan o'xshatish hosil qiluvchi vositalar yordamida hosil qilingan betakror tasvir "Insonni ruhan to'ldirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'zga cho'ndirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan"⁹⁹ badiiy matnning lingvopoetik imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi.

Anvar Obidjon o'zining "Orom olar bezavol" she'rida yor tasvirini berishda hamda lirik qahramon ichki kechinmalari, holatini tasvirlashda quyidagi o'xshatishlarni qo'llaydi:

Orom olar bezavol,
Dilbarim oq kaptardek.
Yumuq turar ko'zlari
Ochilmagan xatlardek.

"Orom olar bezavol" (B.11)

Keltirilgan misolda yor va lirik qahramon tasviri o'xshatish hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar yordamida o'z aksini topgan. Dastlabki misralarda yor oq kaptarga, uning ko'zlari esa ochilmagan xatlarga o'xshatilmoqda. Shoir dilbarni oq kaptarga o'xshatish bilan uning go'zalligi va pokligi, beg'uborligiga ishora qilmoqda. Yumuq holatdagi ko'zlarning ochilmagan xatlarga qiyoslanishi ham dastlabki tasavvurni yanada to'ldiradi, uni bezaydi.

⁹⁸ Хасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадиятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фанлари номз...дисс.автореф. Тошкент, 2010. Б.8.

⁹⁹ Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик таҳлили. Т. 2007. 35- бет.

Anvar Obidjon “Omadli zot” she’rida itni tasvirlar ekan, unga nisbatan o‘zining munosabatini bildirishda “go‘yo” so‘zi yordamida o‘xshatish hosil qiladi va o‘quvchi tasavvurida mis zanjiri bilan faxrlanayotgan it obrazini gavdalantiradi:

Erk unga yot bir tuyg‘u,
Hayot go‘yo soxta sir.
Go‘yo uning faxri shu —
Bo‘ynidagi mis zanjir...

“Omadli zot” (B.21)

Anvar Obidjon o‘xshatish hosil qilishda mavjud leksik va grammatik vositalar qatori “o‘xshatmoq”, “mengzatmoq” fe’llaridan ham o‘rni bilan foydalanganligi kuzatiladi:

Po‘rtana deb oshiq qalbini,
Buyuklarni o‘xshatdim toqqa
Lola dedim yorning labini
Va mengzatdim oyni o‘choqqa.
Ikki so‘z bor — yo‘kdir taqqosi,
Qiyos yo‘qdir noyob ma’danga:
Onaginam — onaning o‘zi,
Vataginam o‘xshar Vatanga.

“Po‘rtana deb oshiq qalbini” (B.54)

She’rni o‘qish davomida o‘xshatishlarning bir qator kelishi –oshiq qalbining po‘rtanaga, buyuk kishilarning tog‘ga, yor labining lolaga, oyni o‘choqqa o‘xshatilishiga guvoh bo‘lamiz. She’r oxirida esa aslida shoirning maqsadi o‘xshatish hosil qilish emas, balki Onani va Vatanni hech narsaga o‘xshatib bo‘lmasligini ta’kidlash ekanligi ayon bo‘ladi. Ana shu maqsadning yuzaga chiqishida o‘xshatish muhim ahamiyat kasb etganligi seziladi.

Quyidagi she’rda esa shoirning olamga bergan ta’rifi, undagi odamlarga bergan ta’rifi, ularga bo‘lgan subyektiv munosabatining ifodalanishida o‘xshatish hosil qiluvchi –dek affiksi muhim ahamiyat kasb etgan:

Bu olam behayo,

Bu olam bedavo,
 Bu olam umidsiz —
 Ig‘vogar so‘takdek,
 Ayolfe‘l erkakdek
 Muttaham, subutsiz.

She‘r davomida shoirning atrofdagi o‘zini o‘rab turgan kishilardan noroziligi, nafrati borgan sari kuchayib boradi. Ana shu holatda o‘xshatishlar munosabat, baholash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu olam fitnakor
 Bu olam tanbozor,
 Bu olam qaroqchi —
 Amaldor so‘zidek,
 G‘arlarning ko‘zidek
 Hiylagar, aldoqchi.

“Tog‘ay Murod” (B.295)

She‘rdan anglashilgan norozilik ohanglari “ig‘vogar so‘takdek”, “ayolfe‘l erkakdek” o‘xshatishlarida ifodalangan muttahamlik, subutsizlik, “amaldor so‘zidek”, “g‘arlarning ko‘zidek” o‘xshatishlarida ifodalangan aldamchilik, hiylagarlik ma‘nolari bilan uyg‘unlashib ketadi.

Shoironing “Yeseninining portretiga boqib” she‘ridan olingan quyidagi parchada uch xil o‘xshatish qo‘llanilgan:

Kel, Sergey,
 Qarz bergil ilhomdan picha,
 Gonorar olgan kun erib turganday.
 Axir, sen qabringda jim yotgan kecha,
 Arvohing ikkimiz bo‘lib ichdik may.
 Bayt «temir yo‘l»larin ustida qotib,
 Turibman ko‘mirsiz parovoz misol.

“Yeseninining portretiga boqib” (B.88)

Dastlabki misralarda qarz berish holati ijodkorning gonorar olgan kuni saxiy bo'lishiga o'xshatilayotgan bo'lsa, she'r bayti temir yo'lga qiyoslanmoqda. Bunda baytning ikki qatordan iborat ekanligi va temir yo'lning ham ikki izdan tashkil topishi o'xshatish uchun asos bo'lgan. Ayniqsa, sher yoza olmay o'tirgan shoirning ko'mirsiz parovozga o'xshatilishi bu tasvirga juda mos tushganligi ham Anvar Obidjonning yuksak mahorat egasi ekanligini ko'rsatadi.

Quyidagi she'rda "singari", "kabi", "-dek" vositalari yordamida o'xshatishlar hosil qilingan. She'rda yolg'izlik va nochorlik holati qanoti singan o'rdakning holatiga, mag'rurlik va hissizlik haykalga, ishq qo'shig'in tinglash esa bedor va ishsiz qorovulning tongni qarshi olishiga o'xshatilmoqda.

Tamakini paydar-pay tortib,
Xayol degan ko'lmakka botib,
Siniqqanot o'rdak singari
Ucholmay shu ko'lmakdan nari,
O'tiribman kulbamda yolg'iz.

Bu ilojisiz va xayol og'ushidagi lirik qahramonning holati. She'rning keyingi o'rinlarida lirik qahramonning bu kuyga tushish sabablari ayon bo'ladi:

Sizni esga olsam, barno qiz,
Xushomad deb o'ylamang aslo.
Lutfingizga zormasman,
Ammo —
Haykal kabi mag'rur va xissiz,
Qorovuldek bedor va ishsiz
Tongni qarshi olgandan ko'ra,
Boshga o'tmish tasmasin o'rab,
Kuylansa-da jafolar nuqul,
Ishq qo'shig'in tinglagan ma'qul.

“Qahraton” (B.185)

Anvar Obidjon she'riyati o'xshatishlarga boy. Badiiy nutqda shoir tomonidan hosil qilingan o'xshatishlar poetik matnning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Bu haqda N.Mahmudov "Ijodkorning bevosita o'zi yaratgan, uning o'tkir ko'zi, ko'lamli tasavvuri va bepoyon taxayyuli, ziyrak kuzatishlari mahsuli sifatida yuzaga kelgan va o'z o'rnida qo'llangan o'xshatishlar betakror obrazlarning go'zal ifodachilariga aylanadi, haqqoniy ta'sirli tasvir uchun xizmat qiladi" deb yozadi.¹⁰⁰

Shoir turp va guruch ta'rifi va tasvirini berishda boshqa biror ijodkor asarida uchramaydigan yangi o'xshatishni yaratadi. Turpning quvvatbaxsh ekanligi kaptar to'shiga, guruchning oppoq va yaltirab turishi o'n besh yoshli qizning tishiga o'xshatiladiki, bu she'rdagi poetik ta'sirchanlikni, obrazlilikni yuzaga keltirgan:

Oltiariq turpining kuchi
 Quvvatbaxshdir kaptar to'shiday.
 Jomchadagi Xiva guruchi
 O'n besh yoshli qizning tishiday.

"Shoir Iqbol osh qilsa" (B.283)

Shoiming "Qahraton" she'rida qish manzarasi, qorning yog'ishi quyidagicha o'z poetik tasviriga ega bo'lgan:

Dalli bo'ron qilmoqda nolish,
 Yirtilgandek ulkan par bolish,
 To'zg'ib tushar samodan qorlar.

"Qahraton" (B.183)

Shoir ijodidan tabiat va inson munosabati, inson ruhiyati, ichki kechinmalarining lingvopoetik tasvirini beruvchi o'xshatishlarni ko'plab topish mumkin. Ammo o'xshatishni hosil qiluvchi vositalar turli-tuman bo'lsa-da, bir vazifaga-shoir maqsadining ro'yobga chiqishiga, poetik matnning badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

¹⁰⁰ Махмудов Н. Ўқитувчи нутқининг маданияти. Тошкент: А.Навоий номидаги нашриёт. б.171.

3.2. Anvar Obidjon she'riyatida jonlantirishning lingvopoetik xususiyatlari

Badiiy matnlarning emotsional-ekspressivligini oshiruvchi vositalardan biri jonlantirishdir. Jonlantirish muallif fikrlarining o'quvchiga tez va aniq yetkazilishini ta'minlashda qulay vosita sifatida lingvopoetik vositalar tizimida muhim o'rin egallaydi. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatini lingvopoetik jihatdan o'rganishga harakat qilgan G.Muhammadjonova jonlantirish yo'nalishlari va uning farqli xususiyatlarini quyidagicha tasniflaydi:

“Jumladan, jonlantirish jonlantirilayotgan obyektни hisobga olgan holda 4 xil yo'nalishda bo'lishi mumkin:

- a) jonsiz predmetni jonlantirish;
- b) jonli mavjudotlarga insonga xos xususiyatlarni taqish;
- v) tabiat hodisalarini jonlantirish;
- g) hissiyotlarni (yoki mavhum otlarni) jonlantirish.

Jonlantirish jonlantirilayotgan obyektga insonning qaysi xususiyatlarini ko'chishi hisobidan ham farqlanadi:

- a) harakat-holatning ko'chishi; b) nutqiy qobiliyatning ko'chishi.

Jonlantirish badiiy asarda o'ziga xos muayyan funksiyalarni bajaradi:

a)jonli tasvir inson ruhiyati olamini, uning ichki hissiyot, dardlarini kashf qiladi. Bunda jonlantirilayotgan obyekt ruhiyati qahramon holatiga uyg'un aks etadi.

- b) yorqin, obrazli badiiy tasvir yaratadi;

v) majoziy fikr ifodalashning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, jonlantirilayotgan obyekt nutq qobiliyatiga ega bo'lsa.”¹⁰¹ “Jonlantirishlarda jonli narsa nomi bilan jonsiz narsa yoki voqelikni, umuman jonli narsaga xos belgi, harakat yoki holat nomi bilan jonsiz narsaga xos belgi, harakat yoki holatni atash va bunda o'xshatishga asoslanish orqali mazkur nomda hosila ma'no yuzaga

¹⁰¹ Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бoshлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи. НДА.- Тошкент, 2004. Б.14.

keltirishdir. Bu hodisa ayrim tilshunoslikka oid asarlarda personifikatsiya deb ham ataladi¹⁰².

A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamovlar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili stilistikasi” kitobida “jonlantirish metaforaning maxsus turi sifatida og‘zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham o‘xshatishlar kabi juda qadimdan ishlatilib kelinadi. Bu shunday priyomki, unda kishilarning harakatlari, his-tuyg‘ulari, so‘zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko‘chiriladi. Boshqacha qilib aytganda, jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so‘zlaydigan qilib tasvirlash jonlantirish deyiladi” deb izohlanadi.¹⁰³

Jonlantirish muhim vosita sifatida shoirga fikr ifodalashda qulaylik tug‘diradi, lirik qahramon ruhiyati. Ichki kechinmalari, atrofdagilarga munosabatini ko‘rsatish bilan birga she‘rlardagi poetik ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Lingvopoetik vosita sifatida jonlantirishning o‘ziga xos jihati shundaki, ijodkor u orqali kutilmagan narsa va predmetlar, holatlar tasvirini chizadi: Anvar Obidjon ijodida jonlantirishning go‘zal namunasini uning quyidagi she‘rlarida uchratish mumkin:

Shirin tushlar ko‘ryapsiz
Og‘ushimga burkanib.
Boqar rashkchi atirgul —
Derazadan,
O‘rtanib.

“Shirin tushlar ko‘ryapsiz”(B.43)

She‘rni o‘qir ekan kitobxon kutmagan holat, ya’ni atirgulning xuddi insonlardek harakatga kirishi, uning xuddi o‘zidan ham go‘zal qiyofaga duch kelgan insonlar kabi rashk qilishidan hayratga soladi, misralarda ifodalangan nozik ifoda uni o‘z ta’siriga oladi. Bu kabi holat shoirning “Hayotning har lahzasi go‘zal“ she‘rlarida ayniqsa, yaqqol kuzatiladi.

Tun pardasi ochilar asta,

¹⁰² Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. — Тошкент, 2000, -Б. 10-11.

¹⁰³ Шомаксудов А. Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983, Б. 249.

Chiqib kelar sahnaga quyosh.
 Kelinchakdek bo‘lib orasta,
 Gul salomdan ko‘taradi bosh.
 Hovli go‘yo yuvilgan chinni,
 Yo‘llar go‘yo artilgan oynak.
 Qutlash uchun yangi bu kunni,
 El oyoqqa turar jonsarak...
 Hayotning har lahzasi go‘zal,
 Umrning har dami g‘animat.

“Hayotning har lahzasi go‘zal “ (B.323)

Quyidagi misolda ham shoirning poetik mahorati uning tun va bolishni jonlantirib qo‘llashida, ularni jonli narsadek tasvirlashida ko‘rinadi:

Qo‘ymas g‘urur kishani
 qiz sari yo‘l olishga.
 Oxir
 Zo‘rlab meni Tun
 Nikohladi Bolishga.

“Jonimni o‘t qariga ” (B.27)

Aslida she‘rdan anglashilgan asl haqiqat qiz oldiga borishga g‘ururi yo‘l qo‘ymagan yigitning noilojlikdan sekingina yostiqqa bosh qo‘yish holati tasviridir. Shoir shu holatni oddiy, yuzaki tasvirlashdan qochadi, fikrlarini kitobxonga ta’sirchan va obrazli yetkazishga intiladi. Aks holda o‘quvchi undan zavqlanmaydi, balki xabar mazmunidagi fikrni shunchaki qabul qiladi.”¹⁰⁴

Derazamga choyshab yopar tun,
 Yulduz uxlari, ko‘zlarim bedor.
 Tamakidan o‘rmalab tutun,
 Cheksizlikka tirmashadi zor.

“Derazamga choyshab yopar tun” (B.71)

¹⁰⁴Жинкин Н. И. Речь как проводник информации. – М., 1982. С.45.

Anvar Obidjon ijodida qoʻllanilgan jonlantirishlarning asosida lirik qahramonga xos xususiyatlarning jonsiz narsalarga koʻchirilishi yotadi. Masalan, insonga xos “choyshab yopmoq”, ”uxlamoq”, ”tirmashmoq” harakatlari maʼlum bir harakatni amalga oshirmoq maʼnolarini anglatadi. Anvar Obidjon mana shu harakatlarni tun, yulduz, tutun kabilarga nisbatan qoʻllab poetik tasvir - jonlantirishning oʻziga xos original koʻrinishlarini hosil qilishga muvaffaq boʻlgan. Baʼzan jonlantirish oʻziga xos peyzaj yaratish vositasi sifatida ham qoʻllaniladi. Buni shamol harakati ifodalangan quyidagi misolda koʻrishimiz mumkin:

Shimol qishin keltirgan shamol

Chekinmoqqa undar kumloqni.

Sarbonlarni qilmoqchidek lol,

Koʻmmoq istar koʻhna soʻqmoqni.

“Sahroyi bola” (B.105)

Jonlantirish usuli nimaga nisbatan va qay holda qoʻllanishi avvalo ijodkorning voqelikdagi voqea-hodisalarni qanday idrok qilishiga, ularda kitobxon eʼtiboridan chetda qolgan jihatlarni zukkolik bilan ilgʻab olishiga bogʻliq. Shunga koʻra poetik matnlarda bu vositaning xilma xil koʻrinishlarini uchratish mumkin. Jonlantirish nafaqat oddiygina tasvir usuli, balki u asar muallifi yoki lirik qahramonning subyektiv munosabatini koʻrsatib berishning qulay vositasi hamdir. Anvar Obidjon uslubining oʻziga xosligi shundaki, u lirik qahramon shakli shamoyili, ichki kechinmalarini oʻz sheʼrlarida toʻgʻridan toʻgʻri tasvirlamaydi, balki ana shu holatlarni jonsiz predmetlarni jonlantirish orqali koʻrsatib beradi. Jonsiz predmetlarning harakatlantirilishi, soʻzlashi, harakatlanishi orqali ijodkor munosabati, bahosi ham oʻz poetik tasviriga ega boʻladi. Quyidagi misralarda shom chogʻida esgan shabadada yengil tebranayotgan chechaklarga insonga xos xususiyatlar singdirilgan va jonlantirishning oʻziga xos koʻrinishi yuzaga kelgan:

Shivirlashar chechaklar

Ortingizdan boʻylanib.

Nima qilib yuribsiz

Shomda yolgʻiz oʻylanib?

“Shivirlashar chechaklar” (B.53)

Tadqiqotchi olimi G.Muhammadjonova qayd etgan jonli mavjudotlarga insonga xos xususiyatlarni taqish orqali jonlantirishni yuzaga keltirish usuli Anvar Obidjon ijodida ham kuzatiladi. Masalan:

Tushmi yo o‘ng...
 Qo‘shnilar beso‘z —
 Turishardi so‘xtasi sovuq.
 Jon talashib ingrardi To‘rtko‘z,
 Qah-qah otib kulardi tovuq.

“Achchig‘i tez dag‘al qo‘shnilar” (B.145)

Yuqoridagi misolda insonga xos bo‘lgan “qah-qah otib kulmoq” xususiyati tovuqqa ko‘chirilishi poetik ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Boshqacha aytganda, shoir bu xususiyatni tovuqqa ko‘chirish bilan kitobxonda unga nisbatan negativ munosabat uyg‘otishga erishgan.

Mana bu misolda esa insonga xos xususiyatlar jonsiz predmetlarga ko‘chirilishi tufayli kitobxon tasavvurida anhor jonlanib tor chertadi, maysa insonga o‘xshab dilxun bosh egadi, uni kuzatib turgan pat bulut esa sukut saqlaydi:

Chirmandaga o‘xshar oy
 Yel shoxlarda chalar nay,
 Dalli anhor
 Chertar tor.
 Sahna — sohil, parda — tun...
 Qo‘shiq boshlar qiz mahzun.
 Bu — xonishmi?
 Nolishmi?
 Maysa dilxun egar bosh,
 Shabnam — ko‘zdan oqqan yosh.
 Saqlar sukut
 Pat bulut.

“Bir pari bor” (B.149)

Ko‘rinadiki, mazkur lingvopoetik vositani hosil qilishda Anvar Obidjon faqatgina jonsiz predmetlarni, tabiat hodisalarini, turli insoniy his-tuyg‘ularni, hayvonot va nabotot olami vakillarini insonlardek harakatlantirish, ularga so‘zlatish, fikr yuritish xususiyatlarini taqish bilan cheklanmaydi, balki ulardan lirik qahramon ichki olami, turli kechinmalarini ochib berishda muhim vosita sifatida foydalangan. Bu shoirning nozik did egasi tabiat va jamiyatda sodir bo‘luvchi hodisalarning zukko kuzatuvchisi ekanligidan dalolat beradi.

3.3. Antitezaning lingvopoetik imkoniyatlari

Anvar Obidjon ijodida boshqa lingvopoetik vositalar qatori antitezadan ham foydalanilgan. Antiteza grekcha so‘z bo‘lib, qarama-qarshi qo‘yish degan ma‘noni bildiradi. Tilshunoslikka doir tadqiqotlarda antiteza poetik sintaksis doirasida qaraladi. R.Qo‘ng‘urov antiteza haqida fikr yuritir ekan, “Antiteza poetik sintaksisning bir ko‘rinishi hisoblanadi, u nutqda ifodalilikni kuchaytirish uchun logik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, predmetlarni va shaxslar xarakterlarini qiyoslash yoki birgina predmet yoki hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlashdir,” deb yozadi. Olimning fikricha, “Antiteza orqali ifodalangan ma‘noni tushunishda bir-biriga keskin qarama-qarshi hodisalarga nisbatan bizning reaksiyamizning ham ahamiyati bor. Masalan, issiq-sovuq, baland-past, ulug‘ va pastkash, jasur va qo‘rqoq, saxiy va xasis, haqiqat va yolg‘on, tun va kun, yorug‘ va qorong‘i kabi antonimik so‘zlar har biri o‘ziga xos reaksiya uyg‘otadi. Ma‘lum hodisa yoki hodisalar tasvirlanayotganda ularni ana shu kabi antonim so‘zlar vositasida birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yib qiyoslanadi va shoir ularga nisbatan o‘zining munosabatini bildiradi yoki bir hodisani turli tomondan tasvirlash orqali o‘quvchida unga ijobiy yoki salbiy munosabat uyg‘otadi”.¹⁰⁵

¹⁰⁵ Кўнғуров Р.Қ. Танланган асарлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. Б.386.

Quyidagi parchada muallif hayotni sahnaga, undagi odamlarni artistlarga o'xshatadi va insoniy munosabatlar zahirida qarama qarshiliklar yotishini antiteza vositasida ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan. Shoir bunda antiteza sifatida siz va men olmoshlaridan foydalangan. Bunda muallif yaxshilik va yomonlik tushunchalariga asoslangan o'zi va tinglovchi shaxsning munosabatlarini ochib bergan. Ayniqsa, tinglovchini saxiy deb, o'zini esa tuban deb baholashi she'rda ifodalangan va kitobxon hukmiga havola etilayotgan mantiqiy ziddlikni oshirgan.

Bu dunyoda hamma joy sahna,

Bu dunyoda hammamiz artis.

Dam saxiy — siz,

Men — tuban ziqna,

Dam odil — men, yovuz esa — siz.

“Eski sahna” (B.333)

She'rdagi ifodalangan fikrlar tashqi ko'rinishda o'zaro ziddlik asosiga qurilgan bo'lsa-da, uning mazmunidan muallifning tinglovchiga nisbatan g'arazi yo'qligi, munosabatlarning ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishi sahnadagi rolga, ya'ni hayotdagi faoliyatiga bog'liq ekanligi anglashiladi. She'rda muallifning o'zini va nutq qaratilgan shaxsni o'zini bilan yomon yoki yaxshi deb ta'riflashi ham shunga ishora qilmoqda.

Anvar Obidjon ijodida qo'llanilgan antitezalarning salmoqli qismi do'st-dushman, sadoqat-xiyonat, shodlik-g'am tushunchalari doirasida shakllangan.

Shoirning she'rlari yurtimizda mustaqillik arafasidagi va undan keyingi yillarda sodir bo'lgan va bo'layotgan o'zgarishlarni, xalqimiz hayotida yuz bergan tub yangilanishlarni, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlarining, urf-odat va an'analarining yana qad rostlayotganligini, o'zaro hurmat asosga qurilgan insoniy munosabatlar, tabiatning betakror manzaralarini kuzatishi natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning bu qarashlari turli lingvopoetik vositalar qatori antiteza sifatida ham o'z badiiy qiyofasiga ega bo'ladi. Shoirning “Farg'onaliklar” she'rida o'zbek xalqiga xos bo'lgan do'stlik, sadoqat bilan bog'liq tushunchalar g'anim, xiyonat kabilarga o'zaro zid munosabatda

tasvirlanadi. “Fargʻonaliklar” sheʻrida xalqimizning erk uchun intilishi, millatimizga xos boʻlgan gʻoyalar va tushunchalar ulugʻlanadi. Unda shoir fargʻonalik yurtdoshlarimizga xos xususiyatlarni bayon qilar ekan, ularning butun xalqimizga xos ekanligini taʼkidlaydi, ularga munosabatini oshkor qilish bilan birga oʻz ichki olamining oʻziga xos nozik qirralarini antiteza yordamida kitobxonga yetkazadi.

Doʻst –gʻanim:

Necha xil gʻanimlar sochdi qahrini,
Yigʻlashni bilmadi fargʻonaliklar.
Gohi doʻst tilsa-da yurak-bagʻrini,
Doʻst dilin tilmadi fargʻonaliklar.

Sadoqat – xiyonat:

Sadoqat bor joyda — diyonat omon,
Sotqinlik yomondir, xiyonat yomon,
Yovga el boʻlmagan kabi hech zamon,
Yovni el qilmadi fargʻonaliklar.

Zoʻr – ojiz:

Zoʻrlarni askiya qildi beayov,
Ojizdan kulmadi fargʻonaliklar.

“Fargʻonaliklar” (B.29)

Koʻrinadiki, shoir fikrlarining antiteza usulida berilishi kitobxonga moʻljallagan fikrlar salmogʻini oshiradi, uni qoʻshimcha maʼnolar bilan bezaydi. Anvar Obidjon sheʻriyatidagi lingvopoetik vosita sifatida qoʻllanilgan soʻzlar va iboralar, tushunchalar oʻzbekona xususiyatlar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, insoniy munosabatlarni toʻlasincha aks ettiradi va shoir sheʻrlarining badiiy-estetik jihatdan kuchli ekanligi sababi ham shunda. “Aytish mumkinki, badiiy nutq oʻz tabiati, mohiyati va maqsadiga uygʻun holatda boylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Qashshoq nutq hech qachon estetik taʼsir quvvatiga sohib boʻla olmaydi, estetik quvvatsiz esa badiiy nutq oʻzining bosh vazifasini bajarishi mushkul. Shuning uchun ham haqiqiy soʻz sanʼatkorlari asar tilining boyligi ustida muttasil

mehnat qilganlar, tinimsiz izlanganlar, tilning turli sathlaridagi rang-baranglikning betakror imkoniyatlarini kashf etganlar. Chinakam boy, rangin nutqning nodir namunalarini yaratganlar. Badiiy adabiyotimiz tili jamiyatimiz a'zolarining boy nutq tuzish sinoatlarini o'rganishlari uchun bitmas-tuganmas manba, o'ziga xos maktabdir. Bu benazir maktabning a'lochi o'quvchilari bo'lish o'zini madaniyatli, ma'rifatli, ma'naviyatli ko'rmoqni istagan har bir kishining burchidir.”¹⁰⁶ Anvar Obidjon she'riyatida qo'llanilgan lingvopoetik vositalarning poetik matndagi vazifasi avvalo, muallif munosabatini, voqelik faktlariga bergan bahosini ko'rsatish, she'rdagi lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari, orzu-umidlarini aks ettiradi. Anvar Obidjon she'rlarida “do'st”, “yov”, “g'anim”, “shoh”, “gado”, “oqil”, “johil”, “orzu”, “armon”, “mard”, “nomard”, “yer”, “osmon”, “ko'k”, “sadoqat”, “xiyonat”, “g'am”, “shodlik”, “yo'qsil”, “amaldor” kabi tushunchalarning o'zaro qarshilantirilishi antitezaning go'zal namunalarini hosil qilganligini ko'rish mumkin:

Do'st- dushman:

Ruhingizga sig'inganim choq,

His qilaman o'zimni ruhsiz.

Do'st qalbida tiriksiz,

Biroq - g'anim uchun olamda yo'qsiz.

“Qodiriyini eslab” (B.12)

Chandiqlar ko'p tanimda:

Yelkamdagi — g'animdand,

Ko'ksimdagi — do'stniki.

“Uchchanoqlar” (B.155)

Oqil-johil:

Ma'qulladi oqillar,

Qarshi chiqdi johillar,

Mug'ombirlar — betaraf.

¹⁰⁶ Махмудов Н. Ўқитувчи нутқининг маданияти. Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти. Тошкент. 2009. 6. 156.

“Uchchanoqlar” (B.155)

Mard-nomard:

Kaltaklashsa dafʼatan,
Xafa boʻlmas, soʻkinmas.
Hayratlanmas mardlardan,
Nomarddan xam oʻkinmas.

“Omadli zot” (B.21)

Shodlik-gʻam:

Shodligim uchdi qoʻldan, gʻamgin erurman tokay,
Zamin uzra baxtim izlab charx ururman tokay?
O falak, rahm aylabon koʻnglimni bogʻ etsang netar,
Barq urgan olam ichra soʻlgʻin tururman tokay?

“Gʻazal shaklidagi sheʼrlar” (B.61)

Sofdil- riyokor,

Yoʻqsil-amaldor:

Sofdillarning ortidan kulib,
Qulluq qildik riyokorlarga.
Yoʻqsillarning boʻtqasin yulib,
Bol yalatdik amaldorlarga.

“Toshoynak oldida” (B.121)

Gʻam –quvonch:

Gʻamga butkul choʻktirma ham,
Quvonchlarga boʻktirma ham,
Shoiringni ehtiyot kil.

“Ma xotinjon” (B.247)

Shoir sheʼrlarida qoʻllanilgan antitezalar lirik qahramon ichki olamining, hissiyotlarining oʻziga xos betakror badiiy manzarasini aks ettiruvchi vositalar sifatida kitobxon xotirasida muhrlanib qoladi. Shoir inson umrining mazmunini tashkil etuvchi orzu va armon tushunchalarini oʻzaro zid qoʻyib tasvirlash orqali antitezaning quyidagi koʻrinishini hosil qilgan:

Mening uchun orzudir bari:
 qoshlaringning sirli imosi,
 og‘ushingning nash’u namosi,
 lablaringning shahdu shakkari.
 Mening uchun bir umr armon:
 ko‘zlaringda yonmagan mehning,
 dil istagin uqmagan zehning,
 yuragingdan so‘nmagan gumon.

“Mening uchun orzudir bari” (B.17)

Quyidagi misolda yer va samo, ko‘k so‘zlarining antiteza sifatida qo‘llanilishi zamirida tilimizdagi “osmon yiroq, yer qattiq” maqoli yotganligi sezilib turadi. Matn mazmunidan noilojlik, chorasizlik semasi bo‘rtib turibdi.

Qo‘shqanotga qiz muhtoj
 Va samoga zor ko‘pdan.
 Yerda ishq toptalgach,
 Izlar endi baxt ko‘kdan.

“Qiz samoga lol boqar” (B.27)

Quyidagi misolda esa shoir “qizg‘anchiq” so‘ziga nisbatan saxiy ma’nosini ifodalovchi “qo‘li ochiq” iborasini qarshi qo‘llash bilan o‘ziga xos antiteza yaratgan:

Qizg‘anchiq deb o‘ylama, gulim,
 Bu so‘z men-chun tengdir o‘limga.
 Inon,
 Juda ochiqdir qo‘lim,
 Hech narsa yo‘q faqat qo‘limda.

“Bir baxshiman” (B.29)

Shoirning antiteza hosil qilish uchun tilimizdagi iste’mol doirasi chegaralangan birliklardan ham mohirona foydalanishi kuzatiladi.

Anvar Obidjon ijodida “avliyo”, ”shayton”, ”farishta”, “jannat”, ”do‘zax” kabi xalqimizning dunyoqarashi, e’tiqodi bilan bog‘liq o‘ziga xos tushunchalarni

ifodalovchi obrazlar borki, ular begunohlik va gunohkorlik ma'nolari ifodasi sifatida she'rdan she'rga o'tish jarayonida tobora mukammallashib, badiiy estetik ta'sir vosita sifatida yangidan yangi ma'no qirralarini kitobxonga namoyon etib boradi.

Bu dunyodan o'tganlar bir-bir
 Necha anqov, necha mug'ambir,
 Vijdonli va vijdotsotar ham,
 Avliyo va shaytonpadar ham.
 O'tgan mendan didli mijozlar
 Va Sizdan ham suluv tannozlar.

“Bu dunyodan o'tganlar bir-bir” (B.44)

Anvar Obidjon she'riyatida milliylik ufurib turgan, xalqchillikka yo'g'rilgan bunday lingvopoetik vositalarni ko'plab uchratish mumkin. Anvar Obidjon tomonidan qo'llanilgan lingvopoetik vositalarda xalq og'zaki ijodi namunalari tiliga xos bo'lgan xususiyatlar ham ma'lum darajada bo'rtib turadi.

Anvar Obidjon ijodiga xos xususiyatlardan biri shuki, shoir fikr ifodalashda til birliklaridan lingvopoetik vosita sifatida foydalanishda xalqning ezgu tushunchalari bilan bog'liq so'zlar va iboralarni qo'llashga intiladi. Anvar Obidjon deyarli har bir she'rida ona tilimiz yashirin imkoniyatlarini, tilimizda mavjud bo'lgan so'z va iboralarning nozik ma'no ifodalay olish xususiyatlarini ochib berishga harakat qilganligi seziladi. Badiiy mahorat va shoirona tafakkur uning ijodida yetakchilik qiladi. U lingvopoetik vositalardan foydalanishda o'zbek she'riyatining davrlar osha shakllangan va takomillashgan an'ana va mezonlariga amal qiladi. Mavzu mohiyatini ochib berishda Anvar Obidjon favqulodda kashf qilgan lingvopoetik vositalar, kutilmagan obrazli ifodalar kitobxonni hayratga soladi, ulardagi shoirning hayotni teran ko'z bilan kuzatishi asosida yuzaga kelgan o'ziga xos badiiy tafakkur, bir-birini to'ldiruvchi mantiqiy xulosalar matnga poetik bo'yoq, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Shuning uchun u tomonidan qo'llanilgan va matnga bog'liq holda badiiy obrazga aylangan tushunchalar she'rdan she'rga ko'char ekan, har gal o'zlarining yangi-yangi nozik qirralarini kitobxonga oshkor

etadi va poetik ta'sirchanlik xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Quyidagi misolda begunohlik ma'nosini bildiruvchi "farishta" obrazi "gunoh", umuman, insonga xos bo'lgan "yomonlik" tushunchalarini o'zida mujassamlashtirgan "shayton" obraziga qarshilantirilgan:

Xudo urgan shaytonman gohi,
 Gohi — duo tekkan farishta.
 Xulqim xaqda so'z ketgan chog'i,
 O'lchanar u
 Har xil qarichda.

"Abdusalomning nadomati" (B.67)

Quyida esa shu tushunchalar doirasida qaraluvchi "jannat" va "do'zax" so'zlari vositasida antiteza hosil qilingan:

Men xudo emasman,
 Menga baribir,
 Shart emas qarshimda bermog'ing javob.
 O'zim vasl jannatin tilanib axir,
 Ishq degan do'zaxda chekyapman azob.

"Men xudo emasman" (B.77)

Tilimizdagi "shoh", "gado" so'zlari bugungi kun uchun eskirgan bo'lsa-da, shoir ularni poetik nutqqa olib kiradi va kishilarning munosabatini ifodalovchi lingvopoetik vositaga aylantiradi:

Tanti Oltiariqda
 Bo'lganmisan, birodar?
 «Voh, mehmon!» — deb
 Siylashar
 Shoh-gadoni barobar.
 Boshlansa gar askiya,
 Kin saqlama
 Hech dilda.
 Do'pposlashar beayov

Shoh-gadoni bir xilda.

“Tanti Oltiariqda” (B.124)

Shoirning kunning ma’lum qismini bildiruvchi “kunduz” va “tun”, “ keng” va “tor” soʻzlarini oʻzaro zid qoʻyib antiteza hosil qilish orqali inson umriga tavsif berishida ham nozik did egasi ekanligi, tafakkuri doirasining keng qamrovli ekanligi bilinadi.

Kunduzmi yo tun-kechalar,
 Chorlar bizni bu koʻchalar.
 Bosgan izing — bir soniya,
 Goʻyo umring tez oʻlchanar.
 Yurdik orzu bor koʻchada,
 Keng koʻcha-yu tor koʻchada.
 Bolalig-u yoshligimiz
 Oʻynar hamon har koʻchada.

“Bu koʻchalar ” (B.315)

Shoirning mana bu sheʼrida ham “kunduz” va “tun” vositasida antiteza hosil qilingan. Farqli jihati shundaki, shoir kunduzga nisbatan salbiy, tunga esa ijobiy munosabatini poetik tarzda ifodalay olgan:

Zimiston...sirli tush... Jimlik... oy... yulduz —
 Sheʼrlaringa bozor qurmishdir nechun?
 Meni tang roʻzgʻorga qul etdi Kunduz,
 Meni shoir qilib yetishtirdi Tun!

“Zimiston” (B.339)

Boshqa bir sheʼrda esa bu mavhum tushunchalar oʻzgacha qiyofa kasb etadi. Shoir er va xotin oʻrtasidagi oʻzaro mehr-oqibatni antiteza vositasida koʻrsatadi va quyidagi poetik tasvirni yaratadi:

Eri ishdan sogʻ qaytmaguncha,
 Ayol uchun quyosh botmaydi.
 Xotin sayrab uygʻotmaguncha,
 Erkak uchun hech tong otmaydi...

Juda oddiy... juda ilohiy...

“Turmush muvozanati” (B.339)

Anvar Obidjon she'riyatida bu kabi kutilmagan tasvirlar, oddiy o'quvchi nazariga birdan tushavermaydigan, faqat teran aql va mushohada orqali ilg'ash mumkin bo'lgan nozik lavhalar talaygina. “Tabiat va jamiyatdagi ko'plab narsa va hodisalarning mohiyati, insonlarning xarakteri ularni bir-biriga qiyoslash, taqqoslash, chog'ishtirish asosida oydinlashadi. Shuning uchun ham, bu qiyoslash tafakkur jarayonida doimo kishilarga hamqadamdir. Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli ham bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarni beradigan so'zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo'llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir.”¹⁰⁷ Ular har bir holatda ham shoir individual uslubining betakror ekanligidan dalolat berib turadi.

3.4. Anvar Obidjon she'riyatida sifatlashlarning lingvopoetik xususiyatlari

Anvar Obidjon ijodida lingvopoetik vositalar tizimida sifatlash ham fikr ifodalashning o'ziga xos usuli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Epitet (sifatlash) grekcha –yepiteton so'zidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinsa, izohlovchi degan ma'noni beradi. Ammo u doimiy aniqlovchilardan o'zining ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi. Epitet –poetik aniqlovchi. U narsa yoki hodisaning biror tomoni, biror xususiyati yoki belgisini alohida ta'riflab ko'rsatish, alohida baholash uchun predmet, voqea nomini bildiruvchi so'z oldidan qo'shimcha ravishda keltiriladigan so'zdir.¹⁰⁸ Tilshunoslikka doir adabiyotlarda epitetning an'anaviy, individual, poetik tasviriy, lirik, liro-epik, doimiy (an'anaviy), metaforik, baholovchi, bezak, kuchaytiruv kabi

¹⁰⁷ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилининг ифода-тасвир воситалари. Самарқанд, 1994. Б.45.

¹⁰⁸ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент Фан, 1977. Б.27.

turlari mavjudligi qayd etiladi.¹⁰⁹ Individual epitetlarni badiiy matnlarda qo‘llash zahirida ehtiyoj yotadi¹¹⁰.

Badiiy matnlarda sifatlashdan foydalanishda muallif ma’lum bir maqsadni – matndagi badiiy estetik ta’sirchanlikni oshirishni ko‘zda tutadi. Sifatlash poetik matnlarda muallif yoki asar ishtirokchisi tomonidan tasvirlayotgan shaxslar, narsa yoki hodisaning o‘zi muhim deb hisoblagan sifatini bo‘rttirib ko‘rsatish orqali kitobxon e’tiborini jalb etishga xizmat qiladi. Sifatlashning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki u muallif tasvirga olgan belgini ta’riflash orqali nutq obyektining o‘zi bilan ham tanishtiradi, uning poetik ta’rifini beradi hamda shu orqali kitobxonda ular to‘g‘risida muayyan tasavvur uyg‘otadi. Anvar Obidjon ijodida qo‘llanilgan har bir sifatlash o‘ziga xos xususiyatlarga va ma’no nozikliklariga ega. Masalan, quyidagi parchada sifatlash muallif munosabati, nutq qaratilgan shaxsga berilgan baho sifatida ko‘zga tashlanadi:

«Xayr» deding,
demak qaytishing mumkin.
Keyin yana o‘sha gaplar:
aldoqchi yangiliklar,
bachkana orzular,
tutruqsiz xotiralar...
Kel, har ehtimolga qarshi vidolashaylik.

“Xayr deding” (B.57)

She’rda qo‘llanilgan “aldoqchi”, “bachkana”, “tutruqsiz” so‘zlari vositasida tinglovchining qanday kishi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Anvar Obidjonning nutq obyektini ta’riflashda “aldoqchi”, “bachkana”, “tutruqsiz” kabi epitetlarni birin-ketin joylashtirishi uning tinglovchiga xos xususiyatlarini atroflicha yoritib berishiga imkoniyat yaratgan.

Quyidagi misralarda sifatlashlar vositasida yor qiyofasi o‘z poetik tasviriga ega bo‘lgan:

¹⁰⁹ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода-тасвир воситалари. Самарқанд, 1994. Б.27.

¹¹⁰ Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Ленинград, 1959. – С. 200-208.

Lablaring billur qadahdir, unda lim qirmiz sharob,
 Tut menga zor aylamay, yo'qsa to'kilgay ertaga.
 Tunlari yulduz bo'lib imlaydi imloq ko'zlaring,
 Qo'rqaman, kutsam bu kech, turgaymi so'nmay ertaga.

“G‘azal shaklidagi she’rlar” (B.59)

Shoirning “Martin Iden” she’rida sifatlashlar vositasida ifoda mazmuni kuchaytirilgan. Matndagi “dalli”, “alamkor” sifatlashlari inson ichki olami tasvirini bersa, keyingi misralarda qo’llanilgan “masxaraboz”, “didsiz”, “molparast”, “olchoq, “johil”, “so‘qqabosh” so‘zlari nutq obyektni ta’riflash vazifasini bajargan:

Dalli tug‘yon,
 Alamkor bir his
 Sig‘dirmadi uni zaminga.
 Masxaraboz hayot,
 Didsiz qiz,
 Molparast do‘st tig‘ sanchdi unga.
 Olchoq mulkdor,
 Johil noshirlar
 Qaydan bilsin — nedir ehtiros.
 Ular-chun zavq — so‘qqabosh lozar,
 Mansab va pul atalmish qog‘oz.

“Martin Iden” (B.111)

Shoir tomonidan nutq obyektiga nisbatan qo’llanilgan “masxaraboz”, “didsiz”, “molparast”, “olchoq, “johil”, “so‘qqabosh” kabi sifatlar aslida muallifning Martin Idenni qurshab turgan, u yashagan zamonda va makonda bo‘layotgan o‘zgarishlarga manfaat nuqtayi nazaridan yondashuvchi kishilarga berilgan ta’rifdir. Shoir yer yuzida Martin Idenga yomonlik qilganlarga o‘xshash odamlarning ko‘pligidan ozor chekadi, ularning molparast, olchoq va johil ekanligidan tashvishga tushadi. Ana shunday holatda sifatlashlardan munosabat ifodasi va badiiy bezak sifatida foydalanish shoirga qo‘l keladi.

Keltirilgan parchada masxaraboz sifati hayot soʻzi bilan birikib, misradan anglashilgan maʼnoni yanada kuchaytirib, boʻrttirib tasvirlashga xizmat qilgan. Albatta, tilimizda narsalarga nisbatan qoʻllaniladigan sifatlarning insonga koʻchirilishi orqali poetik matnlarda obrazlilik, taʼsirchanlik kuchayadi. Anvar Obidjon turli poetik tasvirlarni berishda sifatlashlarning ana shu imkoniyatlaridan mohirona foydalanadi.

Maʼlumki, har bir ijodkor sheʼriyatining maʼlum qismini yor tasviri egallaydi. Uni tasvirlashda shoir maʼno ummonidan soʻz gavharlarini izlaydi, ularni dur kabi teradi. Shoir ijodida qoʻllanilgan maʼza-taʼm bildiruvchi shirin sifati bir qator soʻzlar bilan birikib, poetik tasvirni kuchaytiruvchi sifatlashga aylangan:

O falak, rahm aylabon koʻnglimni bogʻ etsang netar,
Barq urgan olam ichra soʻlgʻin tururman tokay?
Tund dilim shirinsuxan dilbardan topmay nishon,
Shirin orzular birla suhbat qururman tokay?

“Gʻazal shaklidagi sheʼrlar” (B.61)

yoki

Qalbim erib goʻyo moy,
Shirin hisga koʻmildi.
Qip yalangʻoch boʻlib oy
Bulutlarda choʻmildi.

“Qalbim erib goʻyo moy” (B.71)

Inson ruhiyatining, tabiat lavhalarining bu kabi tasvirini boshqa shoirlar ijodida uchratish qiyin. Sifatlashning goʻzal namunalarini shoirning quyidagi sheʼrida oʻqiymiz. Sheʼrdagi poetik taʼsirchanlik shu darajada kuchliki, uni oʻqish bilan kitobxonda faxrlanish, gʻururlanish tuygʻulari uygʻonadi. Unda qoʻllanilgan sifatlashlar kitobxon koʻngliga cheksiz zavq olib kiradi:

Bu yurtda alp chinorlar oʻsar,
Koʻk gumbazlar oʻngu soʻlingda.
Bir azaga kirib oʻtsang gar,

So‘ng o‘nta to‘y uchrar yo‘lingda.
 Goh birovlar tanishar ilk bor,
 Goh yig‘ilar eski ulfatlar.
 Odamzotga dunyo bo‘lmas tor
 To mavjuddir shirin suhbatlar...
 Hayotning har lahza go‘zal,
 Umrning har dami g‘animat.

“Hayotning har lahza go‘zal” (B.322)

Xullas, badiiy matnlarda lingvopoetik vositalar, xususan, sifatlashlar muallif munosabatini ko‘rsatishda, lirik qahramonlarning betakror tasviri, ichki qiyofalarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

3.5. Anvar Obidjon she‘riyatida takrorning lingvopoetik xususiyatlari

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili, unda qo‘llanilgan til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlarini lingvopoetik jihatdan o‘rganish bugungi tilshunosligimizning dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Darhaqiqat, ijodkorlar nutqiy jozibadorlik uchun tinimsiz izlanishda bo‘ladilar. Ularni ifodalashning yangi-yangi vositalarini izlab topishga harakat qiladilar. Ana shuning natijasi sifatida badiiy adabiyot tilidagi uslubiy figuralarning soni birmuncha ko‘p va badiiy ta’sirchanlikning yuzaga kelishidagi salmog‘i kattadir. Ilmiy adabiyotlardagi dalillarni ko‘zdan kechirish bu figuralarning antiteza, amfiteza, akroteza, apokopa, asindeton (bog‘lovchisizlik), assonans, gradatsiya (klimaks, antiklimaks), diateza, zevgma, tovushga taqlid, oksyumoron, padistola, paronomaziya, poliptoton (poliptot), parallelizm, polisenditon (ko‘p bog‘lovchilik), sanash, ritorik murojaat, ustunlar tengligi, tenglik, sinoykoza, sillepsis, segmentatsiya, uch ustunlik, kichraytirish, jim qolish, xiazm, ellipsis, inversiya kabi turlari bo‘lganliklarini va ularning ko‘plari hozirgi zamon poeziyasida, jumladan o‘zbek poeziyasida ham yashab kelayotganligini ko‘rsatadi. Birgina takrorning o‘ttizga yaqin, masalan, alliteratsiya, anafora, akromonogramma

(epanalipsis, epanafora, anadiplozis), antistrofa, antanaklasa, antonomaziya, antimetabola, metabola, naqorat, monorim, pleonazm, rifma, tautologiya, sharh, epifora, epistrofa, epanod, epanasgrofa, qurshab olish, qaytalanish, halqa, bog‘lam kabi turlarining mavjudligi badiiy uslubda ifoda-tasvir imkoniyatlarining naqadar kengligidan dalolat beradi.

Keltirilgan uslubiy figuralarning hammasi ham o‘zbek tili badiiy uslubida mahsuldor sanalmaydi. Buning ustiga ularning ko‘pchiligi shu paytga qadar faqatgina adabiyotshunosligimizda lafziy san’atlar sifatida o‘rganilib kelinayotgan tasviriy vositalarning aynan o‘zidir”.¹¹¹

Lingvopoetikaga doir ishlarda takrorning o‘ttizga yaqin, masalan, alliteratsiya, anafora, akromonogramma (yepanalipsis, yepanafora, anadiplozis), antistrofa, antanaklasa, antonomaziya, antimetabola, metabola, naqorat, monorim, pleonazm, rifma, tautologiya, sharh, yepifora, yepistrofa, yepanod, yepanasgrofa, qurshab olish, qaytalanish, halqa, bog‘lam kabi turlarining mavjudligi qayd etilib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Yuqorida qayd etilgan bu vositalarning ko‘pchiligi bugungi adabiy tilimiz uchun xos bo‘lmay, eskirib ulgurgan. Ular faqat mumtoz asarlar tiliga xos bo‘lib, bugungi o‘zbek she’riyatida deyarli qo‘llanilmaydi.

Anvar Obidjon ijodida muhim ahamiyat kasb etuvchi lingvopoetik vositalardan biri takror hisoblanadi. Takror Anvar Obidjon she’riyatida eng ko‘p qo‘llaniladigan lingvopoetik vositalaridan biridir. She’riyatda takrorni qo‘llash bilan shoir kitobxonni tasvirlanayotgan kishining ichki olamiga olib kiradi, uning kechinmalari, his-tuyg‘ulari bilan tanishtiradi. Bundan tashqari kitobxonga ruhiy lazzat, orom bag‘ishlashni ham nazarda tutadi. Ko‘rinadiki, takrorni qo‘llashda ham lingvopoetikaga xos bo‘lgan o‘quvchi badiiy-estetik ehtiyojini qondirish maqsad qilib olinadi. “Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim – tajribalarni to‘plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi.

¹¹¹ Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. Б.43-44.

Holbuki, odamlar til vositasida tuyg‘u va kechinmalarini, quvonch va qayg‘ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarini ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko‘zda tutmaydi. Estetik vazifa tilning asosiy kommunikativ vazifasini qulaylashtiradi, uning imkoniyatlarini boyitadi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, ta’sir quvvatini namoyon etadi”.¹¹² Masalan, shoirning quyidagi she’rida takror vositasida ma’no kuchayishi ta’minlangan:

Oyijonim, yig‘lamang,
Hali yoshman, o‘lmayman.
Asta turib olsam bas,
Boshqa kasal bo‘lmayman,
Oyijonim, yig‘lamang.

“Kasal bola” (B.35)

Yoki

Yaxshi tushlar ko‘ring, malikam,
Tushingizga kirsin ohular.
Uyg‘onsangiz, o‘kinchdan har dam
Dilga yana tomar og‘ular,
Yaxshi tushlar ko‘ring, malikam

“Yaxshi tushlar ko‘ring, malikam” (B.18)

She’rning dastlabki misrasida undash ma’nosini ifodalagan takrorda oxirgi misrada ta’kid ma’nosi anglashiladi. Shoir ijodida takrorning turli ko‘rinishlari qo‘llanilgan. ”Kipriging nega nam...” she’rida shoir har band oxirida bir xil misrani keltirish bilan takrorni yuzaga keltirgan:

Qaysidir betayin devona
Aljirab zahrini sochdimi,
Kuymanib biron sho‘r peshona
Senga dil hasratin ochdimi,

¹¹² Махмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. 2006, №2 (11). 47, 48,51 –бетлар.

Kipriging nega nam,
 Jonginam?
 Qoldingmi do‘stlarsiz dildirab,
 O‘chdimi isingan gulxaning,
 Chaqindek yoki bir yiltirab,
 Aldatib ketdimi sevganing,
 Kipriging nega nam,
 Jonginam?

“Kipriging nega nam” (B.6)

E’tibor berilsa, she’rda gaplarning aksariyati so‘roq mazmunida bo‘lib, oxirgi misrada bu mazmun takror vositasida kuchaytirilgan. ”Nahot ayriliqdan tug‘ilgay visol” she’rida ham shu holat kuzatiladi:

Sevganmidim Sizni, sevmaganmidim,
 Daydib yurar dilda hamon shu savol.
 Bu kun ravshan javob topmoqlik mahol,
 Yemrildi ko‘p tog‘lar, eslay olur kim,
 Sevganmidim Sizni, sevmaganmidim?

“Nahot ayriliqdan tug‘ilgay visol” (B.117)

Shoirning “Ketmagil” she’rida esa boshqacha holat kuzatiladi. Bunda birinchi misrada qo‘llanilgan ikki so‘z band oxiridagi misrada yana takrorlanadi. Lekin bu aynan takror bo‘lmay, ikkinchi so‘z oxirgi misrada birinchi so‘zdan oldin keladi. Boshqacha aytganda, oxirgi misrada ularning o‘rni almashadi.

Ketmagil,
 Dilbarim,
 Ko‘kda oy to‘lar,
 Bu kun u ko‘nglimiz singari yarim.
 Chaqinlar chaqnagay, qaldiraq kular,
 Toleim bahorin kutgil, dilbarim,
 Ketmagil...

Ketmagil,
 Bokiram,
 Ho‘ngrab ol pinhon,
 Uyg‘onay selgigach yostig‘ingdan nam.
 Agar men yig‘lasam, ko‘zdan oqar qon,
 Yig‘latma. Qon to‘kish shartmi, bokiram?
 Ketmagil.

“Ketmagil” (B.62)

Bu holat she‘rning keyingi bandlarida “Ketmagil, sevgilim...sevgilim, ketmagil”, ”ketmagil, boqiydir...boqiydir, ketmagil”, ”ketmagil yig‘log‘im... yig‘log‘im ketmagil” tarzida davom etadiki, takromni bu tarzda yuzaga keltirish shoirning individual uslubiga bog‘liq ekanligi ayon bo‘ladi.

Shoirning “Omon asra meni, charx!” she‘rida esa faqat uchinchi misralar takrorlanishi orqali ta‘kid ma‘nosi kuchaytirilgan:

Urilajak do‘qlardan,
 Uzilajak o‘qlardan
 Omon asra meni, charx!
 Tug‘ilajak nafratdan,
 To‘qilajak tuhmatdan
 Omon asra meni, charx!
 Aytilajak qarg‘ishdan,
 Aldayajak olqishdan
 Omon asra meni, charx!
 Ta‘mayuqi tuzlardan,
 Nomehribon ko‘zlardan
 Omon asra meni, charx!

“Urilajak do‘qlardan” (B.6)

Anvar Obidjon “Ali bobo haqida qo‘shiq” she‘rida takromning yana bir ko‘rinishini yuzaga keltirgan. Bunda band olti qatordan iborat bo‘lib, birinchi misra ikkinchi misrada, beshinchi misra oxiridagi so‘z birikmasi oxirgi misrada

aynan takrorlanadi. Takrorning bu tarzda berilishi she’rda poetik ohangdorlikni ta’minlashga xizmat qilgan:

Ali bobo,
 Ali bobo,
 Bu olamda omad bordir hali, bobo.
 Omad qushi yaxshilarni izlayversin,
 Yomonga ham qo‘nib gohi qilar xato,
 Qilar xato!
 Ali bobo,
 Ali bobo,
 G‘aribning ham keldi mana gali, bobo.
 G‘arib zoti ortib qolgan kulchasini
 O‘zi kabi bechoraga ko‘rar ravo,
 Ko‘rar ravo!
 Ali bobo,
 Ali bobo,
 Qo‘rqmay kirding yovuz g‘orga, balli, bobo.
 Oltinlarni qutqarolding mog‘or joydan,
 Ularga ham kerak axir toza havo,
 Toza havo!..

“Ali bobo haqida qo‘shiq” (B.74)

Anvar Obidjonning xalqimiz orasida allaqachon qo‘shiq bo‘lib ketgan “Sirdaryo suluvi” she’rida bu vosita she’rning dastlabki baytini takrorlash orqali hosil qilingan:

Sirdaryoning ul yuzida uylaringiz,
 Oqarishib ko‘rinadi bo‘ylaringiz.
 Ko‘ylagingiz etaklari hilpillasa,
 Yelpingani kelar qo‘zi-qo‘ylaringiz.
 Sirdaryoning ul yuzida uylaringiz,
 Oqarishib ko‘rinadi bo‘ylaringiz.

Gohi ehson ulashgandek yo‘qsillarga
 Bizniyam bir yo‘qlab qo‘ysin o‘ylaringiz.
 Sirdaryoning ul yuzida uylaringiz,
 Oqarishib ko‘rinadi bo‘ylaringiz...
 Oqarishib ko‘rinmasa bo‘ylaringiz,
 Jonim, unda qulluq bo‘lsin to‘ylaringiz.

“Sirdaryo suluvi” (B.316)

Anvar Obidjon she’riyatidagi har bir takror o‘ziga xos ma’no nozikliklariga ega. Shoir ijod jarayonida doimo takrorning bir xil ko‘rinishidan foydalanishdan qochadi. U o‘rni bilan takrorning so‘z, so‘z birikmasi, gap shaklidagi ko‘rinishlariga murojaat qiladi. Shoir takror vositasida inson his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, voqelikka, undagi o‘zgarishlarga, kishilarga bo‘lgan subyektiv munosabatini poetik tarzda ifodalaydi. Bu maqsadga erishish uchun u qo‘shimcha, so‘z birikmasi, gap, she’riy misra yoki bandning matnda yoki she’r misralarida grammatik takrorlarning turli ko‘rinishlaridan mohirona foydalanadi. Kutilmagan obrazi, ta’sirchan ifodalarning takrorning turli ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi Anvar Obidjon individual uslubining o‘ziga xosligini ta’minlagan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, Anvar Obidjon she’riyatida qo‘llanilgan takrorlar oddiy tovushdan gaplar takrorigacha bo‘lgan ko‘rinishlarni qamrab oladi. Shoir tomonidan poetik matnga olib kirilgan takrorlar shakl-u shamoyilidan qat’iy nazar, poetik matnlar ohangdorligi, ifodalangan fikrlar ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Bu holat ayniqsa shoirning takrorning turlaridan biri bo‘lgan anaforadan foydalanishida ham ko‘rinadi.

Tilshunos olim A.Hojiyev o‘zining “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” asarida anaforaga quyidagicha ta’rif bergan: "Anafora (yun. anafora - yuqoriga chiqarish). Parallel tuzilgan nutq parchalari (mas, misralar) boshida aynan bir unurning takrorlanishidan iborat uslubiy qo‘llanish. Zid. Epifora"¹¹³

Anafora san’ati quyidagi parchada takrorning bir ko‘rinishi sifatida ta’kid ma’nosini kuchaytirib kelgan:

¹¹³ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. - Т.: ЎзМЭ, 2002. - Б. 14.

Bu olam befahm,
 Bu olam berahm,
 Bu olam kir, badbo'y
 Shaytonning shotiri,
 Iste'dod qotili,
 Hasadchi, g'arazgo'y.

“Tog'ay Murod” (B.295)

Tilshunoslikda anafora deyilganda so'z yoki so'z birikmalarining she'riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi. Anaforada so'z yoki birikmalarning she'riyatda misralar boshidagi takrorlanishida muallif ma'lum bir maqsadni ko'zda tutadi. Bunda shoir maqsadiga ko'ra olmoshlar boshqa so'zlarga nisbatan ko'proq qo'llanilishi mumkin.

Anvar Obidjon ijodida takrorning yana bir ko'rinishi, o'z lingvopoetik tabiatiga ko'ra anaforaga zid turuvchi epiforadan ham foydalanilgan. Epiforada misralar oxiridagi so'z yoki qo'shimchalar takroran qo'llaniladi. Bu vositaning qo'llanishi she'ring kompozitsion yaxlitligini, misralar uyg'unligini ta'minlaydi:

O'spirinlik xohishin men devonalarga kuyladim,
 Yoshligimning xonishin sho'x jononalarga kuyladim,
 Qismatimning nolishin lol-hayronalarga kuyladim,
 Do'stga do'stning yonishin goh parvonalariga kuyladim,
 Ahli nomard qilmishin ul mardonalariga kuyladim.

“Ochilxon hofiz qo'shig'i” (B.254)

She'rda misralar oxirida takrorlangan “kuyladim” so'zi poetik mazmunni kuchaytiruvchi vositaga aylangan.

Anvar Obidjon “Tug'ildingmi” she'rda qoldir so'ziga alohida urg'u berish bilan o'quvchini insoniy hayot kechirishga, axloqiy mezonlarga amal qilishga undaydi. She'rda takroran qo'llanilgan “qoldir” so'zidan buyruq ma'nosi dan ko'ra ta'kid mazmuni kuchliroq tarzda aks etgan:

Tug'ildingmi — samar qoldir,
 O'zligingdan xabar qoldir:

Xoqon ersang, shahar qoldir,
 Zobit ersang, zafar qoldir,
 Olim ersang, asar qoldir,
 Hofiz ersang, lapar qoldir,
 Cho‘pon ersang, otar qoddir,
 Kosib ersang, hunar qoldir...
 Loaqal tinch ro‘zg‘or qurib,
 Yurtingga bir askar qoldir.

“Tug‘ildingmi” (B.349)

Qo‘llanishidan ham ma‘lum bo‘ladiki, epifora takrorning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, u misrada joylashish o‘rniga ko‘ra anaforaga zid turuvchi hodisadir. Chunki anafora misra boshidagi so‘z yoki birikmasi takrori bo‘lsa, epifora - misra oxiridagi til birligi takroridir. Shuningdek, anaforada muallif tomonidan ta‘kid ma‘nosini berish uchun misralar boshida ohangning ko‘tarilishi kuzatilsa, epiforada buning aksi, ya‘ni misralar oxiriga ko‘proq e‘tibor qaratilib, alohida urg‘u beriladi yoki ohangning maxsus ko‘tarilishi yuzaga keladi. Bu esa fikrlarning nutq qaratilgan shaxsga tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Shoir so‘zlarni epifora vazifasida qo‘llar ekan, ko‘proq ot va fe‘l so‘z turkumiga mansub so‘zlarga murojaat qiladi:

Necha xil g‘animlar sochdi qahrini,
 Yig‘lashni bilmadi farg‘onaliklar.
 Gohi do‘st tilsa-da yurak-bag‘rini,
 Do‘st dilin tilmadi farg‘onaliklar.
 Ko‘rdi ko‘p zilzila, selni, toshqinni,
 Ko‘rdi ko‘p talonii, ko‘rdi bosqinni,
 Ko‘rsa-da kulbasi yuzlab yong‘inni,
 Yurtidan jilmadi farg‘onaliklar.

“Farg‘onaliklar” (B.29)

Keltirilgan she‘rning mavzusi vatanparvarlikka oid bo‘lib u yurtdoshlarimizni ta‘riflashga, ulardagi mehmondo‘stlik, sadoqat tuyg‘ularini

tasvirlashga bag'ishlangan. Quyidagi she'rda esa shoir ma'lum xatti-harakati sabablarini epifora vositasida ko'rsatib bera olgan.

G'am-alam va sitam berganing uchun,
 Ko'zimga qatra nam berganing uchun,
 Poradil qalam ham berganing uchun
 Ibodat qilurman bir umr senga.
 Menga ishq uzatgan in'om tufayli,
 Visoldan umidvor oqshom tufayli,
 Taqdirdan qasoskor ilhom tufayli
 Ibodat qilurman bir umr senga.
 So'nik qalb hislarin titganing bois,
 G'aflatdan uyg'otib ketganing bois,
 Sabotli, kurashchan etganing bois
 Ibodat qilurman bir umr senga.

“Dilbarim” (B.7)

Xulosa qilish mumkinki, Anvar Obidjon o'z ijodi bilan o'zbek she'riyatining yangi bosqichga ko'tarilishiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkordir. Uning lingvopoetik vositalardan o'rinli foydalanish mahorati takrorni qo'llashida ham ko'rinadi.

III bob bo'yicha xulosa

1. Sharq she'riyati uchun xos bo'lgan lingvopoetik vositalar o'zlarining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, ular Anvar Obidjon ijodida muhim ahamiyat kasb etadi. Anvar Obidjon ularni qo'llashda tarixda ma'naviy va lafziy san'atlar sifatida ulug'langan lingvopoetik vositalarning go'zal namunalarini yaratadi.

2. Anvar Obidjon she'riyati uchun ifoda lingvopoetik vositalarning sifatlash, jonlantirish, takror kabi turlari faol qo'llanilgan bo'lib, ular badiiy-estetik ta'sirchanlikni oshirishga, turli ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilgan.

3. Anvar Obidjon ijodida qo'llanilgan lingvopoetik vositalar she'rda ko'tarilgan g'oyalar mazmunini ochishga shoirga ko'maklashgan, muallifning munosabati va voqelik faktlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Sifatlashlar Anvar Obidjon ijodida lirik qahramon ichki olami, ruhiyati, nutq obyektini aks ettirishdan tashqari poetik matnda obrazlilikni hosil qiladi. Sifatlashlar Anvar Obidjon she'riyatida emisionallikni ta'minlovchi asosiy lingvopoetik vositalardan biri sifatida nafaqat belgi ifodalash, munosabatni ko'rsatish, nutq obyektini baholash vazifalarini bajaradi.

5. Anvar Obidjon jonlantirishdan tabiatdagi jonli va jonsiz narsalar, insonlar tasvirini berishda muhim lingvopoetik vosita sifatida foydalangan. Anvar Obidjon voqelikdagi narsalarni tilga kiritish orqali go'zal va betakror poetik manzaralar yaratadi. Bu esa o'z navbatida badiiy matnlarning emotsional-ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar Anvar Obidjonning lingvopoetik vositalardan foydalanishda mohir so'z san'atkori ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa

Anvar Obidjon she'rlarining lingvopoetikasini o'rganish bo'yicha quyidagi
xulosalarga kelish mumkin:

1. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida badiiy matnlar lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilayotganligi bu sohaning jadal suratda rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi.

2. Alohida olingan ijodkorlar asarlarining o'ziga xos xususiyatlarini lisoniy vositalarning matnda tutgan o'rni va voqelanish imkoniyatlarini tadqiq qilish orqali ochib beruvchi lingvopoetika tilning barcha sathlari bilan aloqadordir. Badiiy matnlarda til birliklarning matnda tutgan o'rni, qo'llanish imkoniyatlari muallif kommunikativ maqsadiga bog'liq bo'lib, poetik matnlarda ularning badiiy-estetik xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

3. Poetik matnlarda muallif tomonidan to'g'ri tanlangan vositalar o'ziga xos ma'no nozikliklariga ega bo'ladi. Tilimizdagi bir qator so'z va iboralarning emotsional-ekspressiv xususiyatiga ega bo'lishi ularning she'riyatda lingvopoetik vosita sifatida ishtirok etishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun Anvar Obidjon tomonidan ma'lum bir uslubiy maqsadda tanlangan til birliklari fikrlarning o'quvchi tomonidan tez va to'g'ri tushunilishini ta'minlashdan tashqari obrazlilikni ham vujudga keltiradi. Anvar Obidjon she'riyatida asar mazmunini ochishga, qahramonlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda ko'chma ma'no asosida yuzaga keluvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Anvar Obidjon so'z ko'chma ma'nolaridan foydalanishda so'zlarning konnotativ-ifoda semalariga o'ziga xos uslubiy vazifa belgilaydi. Shuning uchun uning she'rlarida qo'llanilgan metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi tasviriy vositalarning badiiy matndagi uslubiy xususiyatlari muallifning individual uslubi bilan bog'liq holda namoyon bo'lgan.

Har bir ijodkor tildagi mavjud vositalardan o'rinli foydalana olishi bilan o'z ijodi mahsuli bo'lgan she'rlari tilining aniq va tushunarli, ifodali va ta'sirchanligini ta'minlashga erishadi. Anvar Obidjon she'rlarida qo'llanilgan metafora, metonimiya, sinekdoxalar fikr ifodalashda qulaylik tug'dirishdan tashqari

tasvirlangan jarayonni, voqelikning poetik manzarasini o'quvchi ko'z o'ngida aniq gavdalandiradi, unda zavq uyg'otadi, kitobxonda ularga nisbatan subyektiv munosabatning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

4. Anvar Obidjon lingvopoetik vositalardan foydalanishda o'zbek she'riyatining davrlar osha shakllangan va takomillashgan an'ana va mezonlariga amal qiladi. Anvar Obidjon favqulodda kashf qilgan lingvopoetik vositalar, kutilmagan obrazli ifodalar kitobxonni hayratga soladi, ulardagi shoirning hayotni teran ko'z bilan kuzatishi asosida yuzaga kelgan o'ziga xos badiiy tafakkur, bir-birini to'ldiruvchi mantiqiy xulosalar matnga poetik bo'yoq, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Shuning uchun u tomonidan qo'llanilgan va matnga bog'liq holda badiiy obrazga aylangan tushunchalar she'rdan she'rga ko'char ekan, har gal o'zlarining yangi-yangi nozik qirralarini kitobxonga oshkor etadi va poetik ta'sirchanlik xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

5. Anvar Obidjon she'riyatida o'xshatish, jonlantirish, antiteza, sifatlash, takror kabilar faol qo'llanilgan bo'lib, ular kitobxonni shoir ruhiyatiga oshno qiladi, betakror poetik manzaralar hosil qiladi, muhim vosita sifatida she'rlarda badiiy-estetik ta'sirchanlikni oshirishga, turli ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilgan. She'riyatda bu vositalarni qo'llash bilan shoir kitobxonni tasvirlanayotgan kishining ichki olamiga olib kiradi, uning kechinmalari, his-tuyg'ulari bilan tanishtiradi. Bundan tashqari kitobxonga ruhiy lazzat, orom bag'ishlashni ham nazarda tutadi. Bu vositalardan foydalanishda ham lingvopoetikaga xos bo'lgan o'quvchi badiiy-estetik ehtiyojini qondirish amalga oshiriladi.

6. Sifatlash, o'xshatish, antiteza, takror kabilar Anvar Obidjon ijodida lirik qahramon ichki olami, ruhiyati, nutq obyektini aks ettirishdan tashqari poetik matnda obrazlilikni hosil qilish, ma'noni kuchaytirish, bo'rttirish kabi vazifalarni bajarishda qo'llanilsa, jonlantirishdan tabiatdagi jonli va jonsiz narsalar, insonlar tasvirini berishda muhim lingvopoetik vosita sifatida foydalanilgan. Anvar Obidjon voqelikdagi narsalarni tilga kiritish orqali go'zal va betakror poetik manzaralar yaratadi. Bu esa o'z navbatida badiiy matnlarning emotsional-ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar Anvar Obidjonning lingvopoetik vositalardan foydalanishda mohir soʻz sanʼatkori ekanligidan dalolat beradi.

7. Ilmiy nuqtayi nazardan Anvar Obidjon sheʼriyatini tahlil qilish badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan oʻrganish boʻyicha izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar uchun muhim maʼlumotlar berishi shubhasiz. Shuningdek, taʼlim tizimining filologik yoʻnalishlarida badiiy asar tili, uslubshunoslik, leksikologiya boʻyicha oʻquv dasturlari tuzishda, nutq madaniyati, badiiy matnning lisoniy tahlili boʻyicha oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar yaratishda tadqiqot natijalaridan material sifatida foydalanish koʻzlangan samarani beradi. Ishda erishilgan natijalardan oʻzbek tilshunosligida alohida olingan ijodkorlar tili va uslubi, xususan, sheʼriy asarlarning lingvopoetik imkoniyatlari va oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha kelgusida magistrlik dissertatsiyalari, malakaviy bitiruv ishlari yozishda foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi.

Anvar Obidjon ijodi keng qamrovli ummon. Shoir tomonidan qoʻllanilgan til birliklarining fonetik-fonologik, leksik va sintaktik sathda lingvopoetik vosita sifatida namoyon boʻlishini oʻrganish masalasi oʻz “gʻavvos”larini kutib turibdi. Bu esa Anvar Obidjon sheʼriyati tili boʻyicha kengroq tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Mazkur mavzuni yanada tadrijiy davom ettirish, olib borilgan kuzatishlarni bir umumiy maxrajga keltirib, ilmiy-nazariy asosga qoʻyish lingvopoetika sohasi oldidagi navbatdagi vazifalardan biridir.

Vaholanki, Anvar Obidjon sheʼrlari kabi soʻz sanʼatining durdonalari har doim ham yaratilavermaydi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Баркамол авлод орзуси (“Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”ни амалга ошириш борасидаги публицистик мулоҳазалар). - Тошкент: Ўзбекистон. 1999.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar

3. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 1984.
4. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент: Фан, 1981.
5. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – М., 1990.
6. Аҳмад С. “Безгакшамол” китобига ёзилган сўзбоши. – Тошкент, 1985.
7. Баракаев Р. Жонажоним шеърят (80-йиллар ўзбек болалар шеъряти ҳақида баъзи қайдлар). – Тошкент: Чўлпон, 1997.
8. Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991.
9. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент : Фан, 1983.
10. Бегматов Э. Назарий хулосалар тилшуносликнинг муҳим амалий вазифаларини ҳал этишга хизмат қилсин. – Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. 3-сон, Б.23.
11. Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий тарихий асослари // Ўзбек тили лексикологияси, Тошкент: Фан, 1981.
12. Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989;
13. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: изд-во Высшая школа. 1971.

14. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981.
15. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: изд-во АН. 1963.
16. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991.
17. Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат.- Тошкент: Ёзувчи, 2001.
18. Григорьев В.П. Поэтика слова. М., 1979.
19. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода // Звегинцев В.В. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях, часть 1. – М.:Просвещение. 1964.
20. Дониёров Х. Навоий ва ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
21. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. -Тошкент: Фан, 1988.
22. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (махорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). – Тошкент: 1962.
23. Жинкин Н. И. Речь как проводник информации. – М., 1982.
24. Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадиий нутқнинг роли, НДА. - Тошкент, 1993.
25. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. -Самарқанд: СамДУ нашри, 1982.
26. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. -Самарқанд: СамДУ нашри, 1999.
27. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. ДДА.- Тошкент, 1993.
28. Йўлдошев Б., Бобожонов Ф., Пардаев З. Бадиий асар тили масалалари. - Навоий: Навоий ДПИ нашри, 2001.

29. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
30. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002.
31. Йўлдошев М. Чўлпоннинг халқ ибораларидан фойдаланишдаги маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, 6-сон.
32. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994.
33. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992.
34. Кунгуров Р., Каримов С., Эргашева К. Лингвостатистические аспекты исследования поэтических текстов современного узбекского языка // Вопросы моделирования языка и машинного перевода. Сборник научных трудов. – Самарканд, 1984.
35. Қодиров П. Тил ва эл (Темурийлар давридаги мумтоз адабий тилимиз муаммолари).- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2005.
36. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: Фан, 1977.
37. Қўнғуров Р.Қ. Танланган асарлар. Самарқанд: СамДУ нашри, 2008.
38. Қурбонов Т. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
39. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. -Тошкент: ТошДУ нашри, 1975.
40. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти. Тошкент, 2009.
41. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
42. Мирзаев И.К. Теория лингвистического анализа текста. Курс лекций. – Самарканд: изд. СамГУ, 1987.
43. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, Фан, 2000.

44. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
45. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи. НДА. - Тошкент, 2004.
46. Муҳиддинов М., Каримов С. Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати.- Самарқанд: СамДУ нашри, 2003.
47. Новиков А.А. Художественный текст и его анализ. М. Русский язык, 1988.
48. Нурмонов А., Искандарова Ш.Тилшунослик назарияси. Ўқув қўлланмаси (магистрлар учун). Тошкент, 2008.
49. Обиджон А. “Аламазон ва Гулмат”. Тошкент. Чўлпон нашриёти, 1992.
50. Обиджон А. “Баҳромнинг ҳикояси”, Тошкент. “Янги аср авлоди” нашриёти, 2007.
51. Обиджон А. “Танланган шеърлар”, Тошкент. “Шарқ” нашриёти, 2006.
52. Обиджон А. “Ўғирланган паҳлавон”. Тошкент. Чўлпон нашриёти, 2006.
53. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. М. 1973.
54. Расулов А. Ўзлик сари йўл. – Тошкент: Адиб, 2012.
55. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Самарқанд, 2007.
56. Солижонов Й. Бадиий асарда монологик нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 3-сон. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси, ДДА. - Тошкент, 2002.
57. Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услуби. -Тошкент: Фан, 1967.
58. Тарланов З.К. Язык и культура. – Петрозаводск: Петрозаводский гос. Ун-т, 1984.
59. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Ленинград, 1959.
60. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, икки томлик, 1- 2 том, –М.: 1981.
61. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. Тошкент, 1990.
62. Ҳамидов З. Навоий бадиий санъатлари. -Тошкент: Университет, 2001.

63. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” нашриёти. 2002.
64. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати, Тошкент: Ўқитувчи, 1970.
65. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
66. Ҳусанов Баҳодир, Ғуломов Валижон. Муомала маданияти. Тошкент, 2007.
67. Шмелев Д.Н. Современный русский язык. Лексика. – М.: Просвещение, 1977.
68. Шомақсудов А. Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

Dissertatsiya va dissertatsiyalarning avtoreferatlari

69. Аҳмедов А. Фурқат поэзиясининг лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 1960
70. Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрий шеър: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 1995.
71. Бабаева С. Лексико-стилистические особенности поэзии Хаида Алимджана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Тошкент, 1989.
72. Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол.фан.ном... дисс. – Тошкент, 2004.
73. Ёриёв Б. Язык поэзии М. Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1979.
74. Жуманазарова Г. “Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил)”. Тошкент, 2012.

75. Жўраева Г.А. Ўзбек болалар шеърлятида ҳажвий образ яратыш маҳорати (XX асрнинг 80-90-йиллари материаллари асосида): Фил.фан.номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2010.
76. Йўлдошев Б., Шодиев З. ”Уфқ” трилогиясининг лингвопоэтик таҳлили. Самарқанд.
77. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан.ном... дисс. – Тошкент, 2000.
78. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
79. Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нуткида антитеза (Э. Воҳидов шеърляти мисолида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 2000.
80. Қиличев Э. Архаизмы и историзмы в прозе Садриддина Айны: Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Ташкент, 1969.
81. Махматмуродов Ш. Язык «Дивана» Хамза Хаким-заде Ниязи: Дисс... канд. филол. наук. -Тошкент, 1981.
82. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии), Автореф. дис... доктора филол. наук, Ташкент, 1992.
83. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири, 90-йиллар бошлари ўзбек шеърлятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.
84. Низамханов Х. Выбор слова как проблема литературно-стилистической обработки текста : Автореф.дис. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1980.
85. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърляти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. — Тошкент, 2011.
86. Рихсиева Г. Шеърлятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафоралар ўрни: Филол. фан. номзоди ... дисс. - Т., 1999.
87. Рустамов М. Гадоий девони тилининг лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс, - Тошкент, 1992.

88. Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 2004
89. Тўланова Н. Тўксонинчи йиллар ўзбек шеърияти тилидаги бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2008.
90. Тўрабекова С. Ғафур Ғулом поэмаларининг тили ва стили ҳақида: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. - Тошкент, 1961.
91. Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.
92. Умуркулов Б. Лексические особенности современной узбекской поэтической речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1983.
93. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, Фан, 1990.
94. Умуркулов Б. Сўз танлаш санъати. – Тошкент, Фан, 1985.
95. Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка "Лисан ат-тайр" Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1982.
96. Ҳайдаров А. Бадий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 2008.
97. Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийтаини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. Тошкент, 2010.
98. Чориев Б. Ғафур Ғулом поэзияси лексикасининг айрим масалалари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Тошкент, 1972.
99. Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2007.
100. Шомаксудов А. Язык сатиры Муками (Лексика и фразеология): Автореф. дисс ... канд. филол. наук. - Т., 1956.
101. Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари доктори ... дисс. автореф. - Тошкент, 2009.

102. Якуббекова М.М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан.д-ри. ...дис.автореф. – Тошкент, 2005.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar

103. Аҳмад. С. Фарғонада биттагина. // Халқ сўзи. 2000 йил 19 апрель.
104. Бобоев Т. Поэтика илмини ўқитиш манбалари // Халқ таълими, 1996, № 1.
105. Ғафуров И. Камалак: Адабий-танқидий йиллик тўплам. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989.
106. Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987, 4-сон.
107. Маҳмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. 2006, №2 (11).
108. Маҳмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, 6-сон.
109. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули. Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон.
110. Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлилига бағишланган янги тадқиқот ҳақида. –Филология -10. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.
111. Мирзаев И. Некоторые проблемы общей и стилистической типологии в связи интерпритации поэтического текста // Вопросы сравнительной типологии (германские, романские, русский, тюркские языки). Тезисы докладов республиканской научной конференции. – Ташкент: изд. ТГПИИЯ, 1981,; Вопросы лингвистики поэтического текста. Библиографический указатель, часть 1. – Самарканд: изд. СамГУ, 1986.; Поэтическая рифма и структурное своеобразие языка // Актуальные вопросы романо-германской филологии и методики преподавания иностранных языков в вузе. Тезисы докладов республиканской научно-методической конференции. – Самарканд: изд. СамГУ, 1988.

112. Мирқосимова М. Бадиий тил ва эпик тасвир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986, № 1.
113. Н.Жумаев. Мағзи тўқ шеърлар // Шарқ юлдузи. 1986. - №11.
114. Расулов. А. Бетакроп ўзлик. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2009.
115. Раҳмон Қўчқор. Ажабтовур идрок усули ёхуд Анвар Обиджоннинг “Олтиариқ хангомалари” китобидан қолган илк таассурот // Fidokor. 2000 йил 20 июль
116. Рўзимуҳаммад Б. Тил – асарнинг танаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1997. 5 декабрь,
117. Сабриддинов А. Сўзнинг поэтик контекстдаги хусусиятлари Ўзбек тили ва адабиёти, 1990, № 6.
118. Самадов Қ. Сўз ва шеърини ифода. – Гулистон, 1994.
119. Сафо Матчон, З.Иброҳимова. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2007 йил 2 ноябрь.
120. Солижонов Й. Бадиий асарда монологик нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 3-сон.; Бадиий нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979, 2-сон.
121. Тўхтабоев Х. Полосонлик Анвар Обиджон // Халқ сўзи. 2006 йил 20 май.
122. Усмонов С. Метафора. - «Ўзбек тили ва адабиёти», 1964, 4-сон.
123. Ҳамроева Ҳ. 1) Ахир менинг қарзим куп она тупроқдан... // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1996 йил 8 ноябрь; 2) Мўъжазу мўъжиза шеър ифори // Тонг юлдузи. 1997 йил 16 июль.
124. Чориев Б. Ғафур Ғулом шеърини тили. – Тошкент, 1990.
125. Шукуров Н. Бадиий услуб ва бадиий тил // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, 4 сон.
126. Эгамбердиева Ш. Ғ.Ғулом асарлари лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1996, № 1.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.ziyouz.com
3. www.anvarobidjon.narod.ru
4. www.kh-davron.uz